

(Uch parda, uch ko'rinishli komediya)

Ishtirok Etuvchilar:

G'anivoy - seleksiyachi, beva, 67 yoshlarda.

Quadrat - uning o'g'li, 50 yoshlarda.

Rahima - Quadratning xotini.

Bahri - G'anivoyning katta qizi.

Nazmi - kichik qizi.

Erkin - Kudratning o'g'li. Fotograf.

Jo'ravoy - G'anivoyning qo'shnisi.

Mahsum - Nazmining eri.

Zebinisa - kolxoz raisi.

Anzirat

Jamila

Xolnisa

Zumrad

Rahbar

Qumri

Asal - qishloqdagi beva xotinlar.

Birinchi Parda

Birinchi Ko'rinish

Ozoda, shinam hovli. O'rtada chorboqqa chiqadigan eshik. Devor orqasidan teplitsa tomi ko'rinish turibdi. Ertalab, tongotar payt. Ayvonga nonushta tayyorlangan. Sahna chetida G'ani ota zalga tsskari qarab taburetkada o'tiribdi. Oyog'i tagida tog'ora. Unda yuvib, siqilgan kiyimlar. Ayvonda o'g'li Quadrat bilan kelini Rahima unga hayron karab turishi. Quadrat uzoq pauzadan keyin tslefon trubkasini olib, shang'illab gapira boshlaydi.

Quadrat. E, tezroq kelmaysanmi, opa? Hammayoq qiyomat-qoyim bo'lib ketdi-ku. Gapni cho'zma. Kelsang bilasan. Aytib qo'ymasam, keyin mendan xafa bo'lib yurasan. Pochchani ham olakel. Ha, aytgancha, komandirovkada edi-ya. O'zing kelaver, bo'lmasam.

Trubkani joyiga qo'yib, ayvondan tushib, dadasi oldiga keladi.

Shu yaxshimas-da, dada. Musicha kukulamay turib olib, sahardan hovliga chiqib kir yuvganingiz nimasi? Odamlar ko'rib qolishsa biz nima degan odam bo'lamiz? Unaqa qilmang-da, dada.

G'ani. Ha, yoqmadimi? Nomus qildingmi? Agar nomus qilish qo'llaringdan keladigan bo'lsa, endi ko'rasanlar. Ko'ylak-ishtonimni avtobus ostanovkasigacha opchiqib yuvaman.

Tog'oradagi kirlarni ko'tarib ko'cha tomonga yuraboshlaydi.

Rahima. Axir, unaqamas-da, dadajon. Bizni el-yurtga sharmanda qilmokchisiz. Egningizdan pesh tushgan kiyimni pesh yuvib turgan bo'lsak. Ikki haftadan beri kiyimingizni bizga bermay o'zingiz yuvyapsiz. Muni qarang, ochilmapti. Kiri shundoq turipti.

Uning ustiga dazmol qilmay kiyib ketipsiz. Birov ko'rsa, kir yuvmay kelinigning ko'li sinsin, demaydimi.

G'ani. Joning achimay qo'yaqolsin. Joni achiydiganim o'n bir yil bo'ldi, qora yerning tagida yotipti. Tirikchiligim it yotish, mirza turish bo'lib qolganiga o'n bir yil bo'lgan. Obidaginam bo'lganda menga bu kunlar qayoqda edi.

Rahima. Bizdan nima yomonlik ko'rdingiz, axir? Ovqatingiz tayin, o'rningiz solig'liq, kiringiz yuvliqlik, yaktagingiz u yoqda tursin, paytavangizga ham dazmol bosamiz, o'ngigayam, teskarisigayam bosamiz. Durustroq kiyinib yuring, deymiz. Kimsan, butun mamlakatga taniqli limonchi seleksioner bo'lsangiz. Haftada bir televizorga chiqib limondan gapirsangiz, gazetayu jurnallarda tinmay svetnoy suratingiz chiqib turgan bo'lsa. Hali Turkmaniston, hali Tojikiston, hali Qirg'izistondan telefon ustiga telefon qilib, limonni qanaqa ekadi, ko'chatidan bittagina olishni iloji bormi, deb so'rab turishgan bo'lsa. Sal mundoq o'z obro'ingizga yarasha ish tutingda, jon dadajon.

G'ani. Kechqurun bo'ldi deguncha hammang uy-uyingga kirib ketasan, magazin qorovulining itidek bitta o'zim qolaman.

Rahima. Voy, uyga kirib yoting. Birov kirma deyaptimi? Choyxonaga chiqing. Klubga boring, mana shundoq yonimizda. Har kuni indiyanskiy kinolar bo'ladi.

G'ani. Kino deydi-ya. Obidaginam tashlab ketgandan buyoq kino nimaligini bilmayman.

Quadrat. Endi qandoq qilamiz, dada. Anosi o'lmagan kim bor, atosi o'lmagan kim bor, qandoq qilamiz.

G'ani (sapchib o'rnidan turib ketadi). Iya, iya, hali niyatlarining shumidi?! Onangni ketidan meni ham jo'natmoqchimisalar?

O'limimni kutib o'tirgan ekansanlar-da. Yo'-o'q, men hali-veri o'lmayman. Bu dunyodan umidim ko'p. Qiz olib senlarni bir kuydirmasam!

Quadrat. Sal pastroq tushing, dada, juda balandga chiqib ketdingiz.

G'ani. Uylanolmaymanmi, a, uylanolmaymanmi? Shu zax, qorong'i uyda ko'kragimni zaxga bosib muzdek yostiqni quchoqlab g'ingshib yotaveramanmi?!

Quadrat bilan Rahima bir-biriga ma'noli qarab olishadi.

Rahima. Voy, tavba! O'gay onali bo'ladiganga o'xshaymiz. Notavon ko'ngilga qo'tir jomashov, degan ekan, bir dono odam.

(Kesatib.) Qanaqasidan bo'lsin, boyevoyrog'idanmi, yo pishib, yetilib ana ketaman, mana ketaman deb hilvirab turganidanmi?

(Quadrat uning yoniga kelib, ko'p jig'iga tegaverma degandek, sonini chimchilaydi.) Karnaychi bilan surnaychiga xabar berib, ocheredga yozilib qo'yish kerak ekan. U o'lgurlarning ham qo'li-qo'lga tegmaydi.

Ko'chadan dod ustiga dod solib Nazmi kiradi. Hansirab, terlab ketgan, sochlari to'z'igan.

Nazmi. Voy dod! Voy dod! Onaginamdan ayrilib qoldim. Mehribonimdan ayrilib qoldim. Sandiq to'la sariq gul, taqsam ado bo'lmaydi, onaginamni dardini aytсам, ado bo'lmaydi. Shu hovlilarda selkillab yursangiz bo'lmasmidi? Savlatim onam, davlatim onam. Bizni odam qilguncha sochi supurgi, qo'li kosov bo'lgan onam. Voy dod! Voy dod! Kimlarga aytay yurakdagi dardimni!

Quadrat. Bo'ldi-ey, onangni o'lganiga o'n bir yil bo'ldi-yu, endi yig'laysanmi? O'lganda qayokda eding, kurortda eding. Telegramma bersam ham kelmagansan. Yigirmasiga zo'rg'a yetib kelgansan.

Nazmi. Voy, menga nega zug'um qilasiz, akajon? Axir sersam o'lgurni mazasi yo'q edi. Putyovkamdan hali o'n yetti kun bor edi.

G'ani. Dod, de, onang tirilib keladi.

Nazmi. Onaginamni boshqatdan o'ldirdinglar. Bu gaplarni eshitib, go'rginangizda qandoq yotibsiz, onajon. Uy to'la limon, bittaginasini yemay o'lib ketgan, onaginam.

Qo'lida gulqaychi bilan uzumni xomtok qilayotgan Jo'ravoy u tomonga qaraydi.

Jo'ra. Tinchlikmi? Nima gap bo'ldi? Bironyasi yana limon uziptimi?

G'ani. Bu yoqdan aylanib chiq. Dardimni sen bilasan. Ellik yillik devor-darmiyon qadrdonimsan.

Jo'ra devor oshib tushadi.

Jo'ra. O'zi nima gap bo'ldi? Hoy, qizim, sen birpas shang'illamay turgin.

Qudrat. Dadam uylanmoqchilar.

Rahima. (sevinib). Shundoq, o'rgilay.

Jo'ra. Iya, rostdanmi? Yo, tavba! Uylanib nima qilasan? Dardisarni boshingga urasanmi? To'ringdan go'ring yaqin bo'lib qopti-ku, uylanishga balo bormi! Xotin zotining turgan-bitgani dahmaza-ku. (Belbog'idan tortib silkitadi.) E, bu ahvolda to'yning ertasiga o'lib qolasan. Limon yeyaverib, limon gulini hidlayverib sovug'ing oshib ketibdi.

G'ani. Ko'p valdirama. Otam rahmatli to'rt marta uylanganlar. Uzumni g'o'rasini g'arch-g'arch chaynardilar, turpni suvini ichardilar, xom anorni yemasalar uxlolmasdilar. Shuncha nordon narsa yeb sovuqlari oshmagan. Qaytaga sakson bir yoshlarida Hasan-Husan farzand ko'rganlar. Sen nima deb o'tiripsan, limon deydi-ya!

Nazmi. Voy dod! Olgan xotini Hasan-Husan tug'ib bersa hovlining hammasini olib qo'yadi. Oyimdan qolgan merosga ega chiqadi.

Qudrat. Ovozingni o'chir! Oyingdan nima qopti? Bitta mis barkash bilan to'rtta sopol lagan qolgan. Ol, kerak bo'lsa!

Bahri (eshikdan kirganiga ancha bo'lgan. Gaplarga quloq solib turgan edi). Hali shunaqami, hali shunaqami? O'ttiz ikkita nevara ko'rgan, yettita quda tutgan odamdan shu gap chiqdimi? Voy, qudalarim oldida nima degan odam bo'laman? Nevara-chevaralarimga nima deyman? Yaqinda qiz uzatadigan odamman. Uxojorni choling nevarasi ekan, deb sovchilar ostonamdan qaytib ketadi. Hoy, Qudrat, nima qilib serrayib turibsiz? Chaqir o'g'lingni. Erkingni chaqir!

Qudrat. Nima qilasan, uni, opa?

Bahri. Chaqir uni. Chaqir dedimmi, chaqir!

Qudrat. (uyga qarab). Ho, Erkin, Erkin-ov! Suratni keyin ishlarsan, bu yoqqa chiq!

Ichkaridan bo'yniga fotoapparat osgan, soqoli ko'ksiga tushgan Erkin chiqadi.

Bahri. Mana! Mana! Mana shu nevarasi bo'ladi. Nevarasining soqoli ko'ksiga tushadi. Nevarasi hassasiga tayanib qolgan cholga qaysi likildoq kampir tegadi. Bu gap kimdan chiqqan bo'lsa, noma'qul buzoqning go'shtini yepti.

Rahima. Qo'ying, opa, uylansalar uylanaqolsinlar. Ko'ngil ekan-da!

Nazmi. Voy dod! Kennoyim dadamdan qutulolmay yurgan ekan. Bu gap shu kishidan chiqqan. Bir kosa osh berish, bitta ko'yilagini yuvish malol kelganidan dadamni uylantirmokchi. Qaysi kelin er urug'iga el bo'lgan!

Bahri. Agar dadaginam sizlarga malol kelayotgan bo'lsalar, men olib ketaman. Biznikida turadilar.

Jo'ra. Bahri, seni yaxshi bilaman. Eringni ham kaftimning chizig'idek to'chuy bilaman. Birinchidan, G'ani bir buyum emas, hamma olib ketaveradigan. Uy kerak bo'lsa, respublikaning qaysi burchagiga borsa professorlar ololmagan uyni berishadi. Negaki, bunaqa limonchi hali yetti iqlimda paydo bo'lmagan. Bu gap, gap emas. Ikkinchidan, sen uni bekorga olib ketmaysan, uni o'zidan ko'ra pensiyasi kerak senga, bildingmi?

Bahri. Sizdan qachon bir shirin gap chiqqandiki, endi chiqadi. Manavi kelin bilan Jo'ravoy tog'aning tili bor.

Nazmi. Oyimni ham shu kelin sil qilib o'ldirgan.

K u d r a t. Og'zim bor, deb har gapni aytaverasanmi? O'chir ovozingni!

Nazmi. Agar dadam uylanadigan bo'lsalar, xotinlariga sirka ichirib, akashak qilib o'ldiraman. Limonxonaga o't qo'yib, kulini ko'kka sovuraman.

Jo'ra. Endi menga kdranglar. Bunaqa valaq-vuluq qilgan bilan ish bitmaydi. Do'ppini olib qo'yib, gaplashaylik. Men G'anivoy tomonda turib gaplashay. Sizlar ko'pchiliksizlar, men tomonga ikki kishi o'tsin. Shunda ikki yoq bab-baravar ovozga ega bo'ladi.

Qani, kim o'tadi? (Nazmi bilan Bahri hammaga sinchkovlik bilan qarab turishadi.) Hoy kelin, sen men tomonga o't. Erkin ham o'tsin.

Bahri. U yosh bola-ku. Nimani biladi.

Jo'ra. Iya, iya! Shu yosh bolami? Soqolini qara. Lev Tolstoyga o'xshaydi. Xo'sh desangiz, bu tomoni hal bo'ldi. Gap bundoq. Men tomondagilar G'anining uylanishiga tarafdor. Siz tomondagilar qarshi. Kelishdikmi? Qani, qaysi tomondagilar gap boshlaydi?

Nazmi. Men boshlayman. Biz qarshimiz.

Jo'ra. Sababini ayt.

Nazmi. Qarshimiz, vassalom.

Jo'ra. Bu gap emas. Dadang oltmish yetti yoshda. Grajdanklik huquqi o'zida. Bola-chaqalaridan tinchigan. Birini erga berib, birini uylantirib, qarzidan qutulgan. Endi uylanmoqchi ekan, ixtiyori o'zida. Sen qarshi bo'lasanmi, bo'lmaysanmi, buni ahamiyati yo'q.

Nazmi. Boy, amaki, bilib gapiryapsizmi?

Bahri. Bular shunaqa, pochchang o'lgur ham agar men o'lib qolsam, bu yoqdan tuproqqa tiqadi-yu, mozoroboshidan qaytishda surnay chaldirib, bittasini uyga olib keladi.

G'ani. Kuyovimni ko'pam yomonlayverma. Durust bola u.

Bahri. Yomonlayotganim yo'q. Bitta yaxshi erkak sizmi? Shundoq onaginamni arvochini chirqillatyapsiz.

Qudrat. Bunaqa mayda, ipirisqi gaplarni qo'yinglar. Asosiy gapdan gaplashaylik. Dadam yeyish-ichishdan kam emaslar. Kiyimlari yuvuqsiz qolgani yo'q. Ammo qariganda bitta tanmahram zarurligini bilaman. Ammo oltmish yetti yoshga kirib uylansalar, eshitgan quloqqa juda xunuk gap-da.

Jo'ra. Qudratjon, sen ham o'zimni bolamdeksan. Kishi keksayganda yotib qolishi bor. Yotib qolgan kishining har xil holati bor. Kelin yechintirib qarolmasa. Qizlar kelib qarolmasa. Senlar ham bir qaraysanlar, ikki qaraysanlar, uchinchi galdan burnilaringni jiyirasan. Shunaqa paytda faqat bitta tanmahram bu ishga yaraydi. Hammang o'z bola-chaqalarining bilan ovorasanlar. Mana, o'tgan hafta dadang kasal bo'lib qoldi. Hammang ishdasanlar. (G'aniga.) Nima yegan eding, ha, qulupnay yeb, ketidan xom sut ichgan ekan. Kelin yaqiniga kelolmadi. Kuniga men yaradim. Yechintirib, o'zim kiyintirdim. Xo'sh, shu insofdanmi? Men bo'lmasam, belanib yotaverarmidi? Qani, birortang ayt-chi, yana shunaqa bo'lsa, (Nazmiga) sen qaraysanmi, (Bahriga) yo, sen qaraysanmi? Manavi kelin-ku mutlaqo qarolmaydi. Masalaning bu tomonini ham ag'darib qaranglar-da.

Nazmi (uzoq pauzadan keyin). Mayli. Men roziman. Ammo bitta shartim bor.

Jo'ra. Qanaqa shart, ayt!

Nazmi. Agar xotin olsalar, bu uyda turmaydilar. Dom-pomga chiqib ketadilar.

Jo'ra. O'zi qurgan uyni tashlab ketadimi? Undan tashqari qishloqda ortiqcha uy yo'q. Bo'ladigan gapdan gapir. Limonxonani tashlab qayoqqa ketadi?

Bahri. Uylanadigan odam bu yog'ini ham pishiq qilsin-da.

Jo'ra. Unaqa ahmoq gapni gapirma. O'zlaringga gap tegadi. Bordiyu ichkuyov bo'lib ketsa, chidaysanlarmi?

Nazmi. Voy dod! Bizni tashlab xotinlarinikiga ketmoqchimilar?! (Chapak chalib dodlaydi).

G'ani. Bo'ldi, ovozingni o'chir-ey!

Quadrat. Jo'ravoy amaki, boyagi gaplaringizni xo'p tanamga o'ylab ko'rdim. Juda dono gaplarni aytdingiz. Men dadamning uylanishlariga roziman.

Rahima. Ot qayoqqa yursa, arava ham o'shaqqa yuradi. Menam roziman.

Nazmi. Men ikki dunyoda rozi emasman.

Quadrat. Seni rozi-rozimasliging kopeyka. O'zing uch marta erga tegding, bizdan qaysi biriga rozilik so'ragan eding. Ko'chaga chiqib erkak zotini ko'rsam, kuyovim shu bo'lsa kerak deb, ehtiyotdan salom berib o'taman.

Jo'ra. Bolam, eshak minib oyoq ostini ko'rgandan, tuya minib uzoqni ko'rgan yaxshi deydilar.

Nazmi. Qachon eshak minibman?! Og'zingizga qarab gapiring, amaki.

Jo'ra. Seni eshak mindi deya yotganim yo'q, bolam. Bu bir maqol.

Nazmi. Maqol ham o'lsin. Endi shu bitta eshak qolgandi maqol bo'lmagan.

Quadrat. Bilib-bilmay gapga aralashmay turgin, maqolni tagida bir gap bordirki, gapga qistiraptilar. Gapiring, Jo'ravoy amaki.

Jo'ra. Gapdan ham adashib ketdim. Nima edi? (O'ylab). Ha, topdim. Uzoqni o'ylash kerak, bolam. Dadang kichkina odam emas.

Kimsan, G'ani limonchi! U yaratgan limon navlari butun O'rta Osiyo va Qozog'istonga mashhur bo'lgan. Hatto Kavkazdan odam kelib, ko'chat olib ketyapti. G'anivoy bugun Farg'onada bo'lsa, ertaga Xorazmda. Biron oy yo'qki respublika yo oblastga bormagan bo'lsa. Oblastma-oblastCHB yurib, limonchilarga konsulCHBtatsiya beradi. Shundoq dadalaring borligiga sevinmaysizlarmi. Ko'ksi to'la orden. Sal kunda geroy bo'lib ketadigan holi bor. Ana shu odamning yonida issiq-sovug'idan xabar olib turadigan, orqasini qashlab qo'yadigan bir tanmahram bo'lsa, eh-he, bu chol tushmagur, nima ishlar qivormaydi, deysiz. ApelCHBsin bilan mandarin chatishmasi allaqachon bitib ketardi. Bitta o'zlaringni o'ylamanglar-da! Respublikani o'ylanglar. Tushundinglarmi?!

Bahri. ApilCHBsin o'lgur bilan mandarin o'lgurni uylanmay chatishtirsa bo'lmaydimi!

Nazmi. Ha-ya, dadam uylanmasalar apilCHBsin qurib ketgur chatishmaydimi?

Jo'ra. O'zimni qizim emassan-da. Shundoq bo'lganda hozir bitta shapaloq yerding.

Quadrat. To'xtanglar. Jo'ravoy aka, gaplaringiz bir kattakon olimning gapiga teng keladigan gap bo'ldi. Dadamga qancha yaxshi sharoit yaratib bersak, u kishi shuncha yaxshi ijod qiladilar. Hoy, Bahri, hoy, Nazmi, senlarni bu atrofda hech kim falonchining xotini, deydimi? Yo'q, demaydi. Haligacha G'ani limonchining qizi, deydi. Limonini yegandankeyin, limonchinyam hurmat qilgin-da. Dada, qizlaringiz vaqillayveradi. O'zim sovchi bo'lib uylantirganim bo'lsin.

Rahima. Bu oiladan bitta aqlli bola chiqpb qolgan ekan-da.

Jo'ra. Endi bundoq qilaylik. Kuyov bola bilan uyga kiraylik. Sizlar aqllashib, qayerda G'anibop kelin borligini bilib, ro'yxat qilinglar. Bo'ptimi? Yo, G'anivoy, ko'zingni ostiga olib qo'yganing bormn?

G'ani (iymanib). Ko'z ostiga-ku, olganim yo'g'-a. Ammo Abdumajidning onasini ham ro'yxatga kiritib qo'yinglar.

Nazmi. Voy dod! Aslo rozi emasman. Oyim rahmatli shundan xavotirda edilar. Oyim tirikliklarida ham dadam shu Zumrad kampir bilan don olishib yurardilar. Eshitganman. Tegirmon orqasida soating necha bo'ldn, deb bilagidan ushlaganlarini odamlar necha martalab ko'rishgan. Yoshi ellik beshga kirib, haliyam ulama takadi. Magazinda sumkasidan pul olayotganda bitta qog'oz yerga tushib ketganmish. Olib qarashsa, jurnalda chiqqan dadamning svetnoy surati emish. Sharmandasi chiqib ura qochganmish. Moda bo'pti deb, bilagiga erkaklar soatini taqib yuradi. Sira rozi emasman.

G'ani. Bilib-bilmay gapiraverma. Damskiy soatning miliga ko'zi o'tmaydi. Mili yirik, yaxshi ko'rinadi deb, shunaqa katta soat taqadi, bildingmi?

Nazmi. Balki soatni ham o'zingiz olib bergandirsiz.

Jo'ra. U bo'lmasa, agronomni onasini ko'rnsin.

Bahri. Voy, savil, dadam shuni oladilarmi? Sharm-hayo bormi u kampirda. O'z ko'zim bilan ko'rganman. Har kuni tong otishi bilan mayka kiyib, qishloq ko'chasida yarim soat yuguradi. Ha, desa, ertalabki zaryadka deydi. Shunaqa qilsa, qon bosimi oshmashmish. Impap bo'lmasmish.

Erkin. Malades kampir.

Quadrat. Sen aralashma, bor, uyga kir.

Nazmi. Yomonning bir qiligi' ortiq, degandek, bozorga valasapit minib borganiga o'laymi.

Bahri. Nevarasini to'yida beliga ro'mol o'rab indiyicha o'ynagan.

Rahima. Boshida eri yo'q. O'zini shunaqa qilib ovutadi-da. Erga tegsa, quyilib qoladi. Oydek kelin bo'ladi. Yoshligida judayam chiroyli bo'lgan deyshadi-ku. Machit buzilsa mehrobi qolar, degandek, haliyam yuzidan nur yog'ilib turadi.

Jo'ra. Ha, chiroylikka chiroyli edi. Eri ishqiboz bo'lib qolib, Chust degan joyning Olmos degan parilar qishlog'idan opqochib kelgan edi. Akalari o'ldiraman deb, qishlog'imizda ikki oy pichoq yalang'ochlab yurishgan.

Nazmi. Chiroyli bo'lmay o'lsin. Ming chiroyli bo'lgani bilan, bari bir popiris chekadi.

Rahima. Boya aytdim-ku, boshida eri yo'q, deb. Xumor bostiga popiris chekkan bo'lsa chekkandir. Erga tegsa, darrov xumori bosiladi, qoladi.

Erkin. Bitta o'rtog'imning buvisi bor. Juda zo'r kampir.

Quadrat. Haliyam shu yerdamisan? Bor, uyga kir.

Jo'ra. Haydamay tur bolani. Qani, ayt-chi, Erkinboy, qaysi o'rtog'ingni buvisini aytyapsan?

Erkin. Bitkombinatda biz bilan ishlaydigan fotochi o'rtog'im bor. Oti Arkadiy.

Nazmi. O'rismi?

Erkin. Yo'q, oti Orif. Biz uni yangichasiga Arkadiy deymiz. Buvisi juda chiroyli. Qishda muzlarni teshib cho'miladi.

Bahri. E, anavu Qumri kampirmi aytyapsanmi, u g'irt jinni-ku. Qishda soy bo'yiga borsangiz, shir-yalang'och bo'lib, muzni teshib,

cho'milayotganini ko'rasiz.

Quadrat. Qishda cho'milishni tan sog'liqqa juda foydasi ko'p-da. Qishda cho'miladiganlarni morj deyishadi.

Nazmi. Voy o'lay, morj Shimoliy qutbda yashaydigan hayvon-ku. Zooparkda ko'rganman.

Jo'ra. Qanaqasi bo'lsa ham ro'yxatga olib ko'yaveringlar-chi. Birontasi ma'qul bo'lib qolar.

Quadrat. Rayispolkom raisining onasini ham yozib qo'yinglar.

Rahima. Xozmag mudirining onasi ham durust xotin.

Nazmi. Tishi o'zinikimi yo hukumat qo'yib berganmi?

Quadrat. Senga bari bir emasmi? Yo tishi o'ziniki bo'lsa, ovqatni ko'p yeydimi?

Nazmi. Bo'lmaydi. Boshini yuvayotganda ko'rishgan ekan, bo'ynida sovun ko'pirmasmish.

Rahima. Shu ham gap bo'ptimi. Ko'pirmasa ko'pirmas. Erga tegsa ko'pirib ketadi. Erining o'zi ko'pirtirvoradi.

Jo'ra. Esrlaringga kelganini yozib ko'yaveringlar-chi. Bir chekkadan sovchilikka boraverasizlar.

Nazmi. Voy, meni dadamga kimlar tegmaydi. Qayoqdagn qalang'i-qasang'ilarga boravermanglar.

Quadrat. Singlim, dadamiz bari bir hammasini ololmaydilar. Bittasini oladilar. Ammo-lekin tanlab olib beramiz.

Nazmi. Hali to'y ham bo'ladimi?

Jo'ra. To'y emas-ku, to'ychiq qilib berasizlar-da.

Bahri. Karnay-surnay chalinadimi?

Jo'ra. Karnay chaldirsak, ayb bo'lar-ov! Surnay chaldirib qo'yaqolsakmikin.

G'ani. Hech narsa chaldirmaymiz.

Nazmi. Albatta chaldirmaysiz-da. Yo yonboshiga lenta taqilgan, oldiga qo'g'irchoq boylangan "Chayka"da qishloq aylantirmoqchimisizlar?

G'ani. Meni kalaka qilma, bolam.

Nazmi. Oyiginamning qo'llari tekkan biron buyumni qoldirmayman. Elakniyam, samovarniyam, cho'yan dazmolniyam olib ketaman.

Quadrat. Uyni shipshiydam qilib ketganing yetmasmidi? Har kelganingda biron narsani sudrab ketasan. Govmish sigirimizniyam yetaklab ketgansan, yeliniga oyimni qo'li tekkan, deb. Uyalmasanmi?

Nazmi. Nega uyalar ekanman? Kelin ayam oyimni qadriga yetmagandi. O'zini qadrlamagan, sigirini qadrlarmidi.

G'ani. Opket, nimaiki qolgan bo'lsa, hammasini ol. Oyingni qo'li tekkan devorni ham ko'chirib ket. Faqat menga tegma. Tinch qo'y.

Bahri. Ana ko'rdingizmi, hali xotin olmasdan bizni begona qilyaptilar. Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r. Ko'rarmiz?

Rahima. Gapimni teskari tushunmanglar. Kelin ayam dadamdan qachon qutulaman, deb payt poylab o'tirgan ekan, deb aslo o'ylamanglar. Otamdan men hech qachon tirnoqcha yomonlik ko'rmaganman. O'z qizlaridek ko'radilar. Rahmatli qaynonam ham farishtadek xotin edilar. Endi qandoq qilamiz. Otamizga ham jabr bo'lib ketdi. Bir tanmahram kerak, albatta. Agar xo'p desanglar, bir kampir bor. Bichish-tikishga chevar. Pazandaligini aytmaydizlarmi! O'zi nihoyatda ozoda. Sovunga chidasanglar bo'ldi. U yoqqa o'tsa ham, bu yoqqa o'tsa ham ko'ziga sovun ko'rinsa bo'ldi. Har qanday ishini tashlab, qo'lini yuvadi. Bir kunda yuz marta sovun ko'rsa, yuz marta qo'lini yuvadi. Choynak-piyola u yoqda tursin, qozonni ham atir sovunda yuvadi. Suhbati shirin xotin. Bir gaplashgan, yana gaplashsam deydi.

Nazmi. Obbo, juda maqtavordingiz-ku.

Rahima. Aslo maktayotganim yo'q. Sizlar ishonmaysizlar deb, ko'p yaxshi ishlarini aytganim yo'k. Agar bu xotin maqtaydigan yozuvchining qo'lga tushsa, eh-he, nimalar demaydi. Sizlarga yolg'on, menga rost, sigir soqqanda kuyovining arag'idan paxtaga tomizib, yelinini artadi.

Erkin. Sutini ichganlar kayf qilarkan-da.

Nazmi. Sigirni yeliniga dazmol ham bosadi, deb qo'yaqoling.

Rahima. Shunaqa ishonmaysizlar-da.

Nazmi. E, o'lsin, Jamila xolami? Dadamni eski jazmanlari. Bo'lmaydi. Atir surmasa, uyqusi kelmaydi. Nima balo, atirni boshidan quyadimi, ko'chadan o'tsa, uch kungacha atir hidi kelib turadi. Magazinga kelgan atirlarni sotmay, o'zi olib qo'yadi. Bo'lmaydi.

Rahima. Bo'lmasam, sartarosh Orif sariqning qaynonasini olib beraylik.

Quadrat. Qaysi Orif sariq? Tushuntiribrok ayt. Kim ekan, gapni cho'zmasdan ayt-qo'y-da.

Rahima. Uchko'prikdagi sartarosh Orif sariq degan bor-ku. O'shaning qaynonasi. Yaqinda uyida katta janjal chiqdi. Sariq o'lgur arzimagan narsalardan janjal chiqazib, bechora kampirni qiynapti. Kampir bechoraning shu qizidan boshqa bolasi yo'q, boradigan joyi yo'q. Hovli-joyini sotib, kuyovining qo'lga bergan. Tunov kuni aptekani yonida ko'rib qolgan edim. Bechora yig'lab-yig'lab humordan chiqdi. Tengim chiqsa tegib ketganim ming marta yaxshi edi, deydi bechora. Menimcha, shuni ham ro'yxatga kiritib qo'yish kerak.

Jo'ra. Juda G'anibop kampir ekan. Xo'sh, o'zing nima deysan, oshnam?

G'ani. Mayli, shunga boringlar.

Nazmi. Hech kim bormasin. Ro'yxatdagilarni avval mahallasidan, quda-andalaridan o'zim surishtiraman. Ana undan keyin sovchilikka borasizlar.

Quadrat. Sen aralashadigan ish buzilmay qolmaydi. Jim tursang bo'lardi.

Bahri. Kelinposhsha bilan ikkovimiz boramiz. Nazmi, sen boshqa ish qil.

Nazmi. Ho, yoqadimi? Bo'ladiganini bo'ladigan, bo'lmaydiganini bo'lmaydigan qiladigan o'zimman. Qani, mensiz bir kadam bosib ko'ringlar-chi. Ishongan tog'da kiyik yotmas, deb shuni aytarkanlar-da. Agar dadam xotin olsalar, bo'g'izlayman, degan kim edi?

Bahri. Singiljon, jahl ustida odam nimalar demaydi. Jo'ra amakimni gaplarini eshitding-ku. Dadam qulupnay yeb, ketidan xom sut ichib, kasal bo'lganlarida kunlariga sen yaradingmi, men yaradimmi? Bu yog'inn ham o'ylash kerak. Agar gapning po'skallasini aytsam, shu ishni qilsak oyim rahmatli go'rlarida tinch yotadilar. Dadamning notinchligi onaginamning arvohini bezovta qiladi. bildingmi?

Jo'ra. Bahrgg, o'zing ayol ktgshp bo'lsang ham, ammo o'til bolaning gapini qilding. Demak, Orif sariqning kaynonasi, shundaymi?

Bo'pti. Tugun-tersaklarni tayyorlanglar. Bo'ldi, endi men uyga chiqay. Xotinim qidirib yurgandir.

Nazmi. Shoshmang, amaki. Sovchilikka borishni bir-ikkp kun kechiktirib turishga to'g'ri keladi. (O'zicha pichirlab.) Men tirik ekanman, bu uyga xotin zoti oyoq bosmaydi.

Jo'ra. Yana qandoq gap topding?

Nazmi. Kampir degani, bu dunyoga mehmon degani. Bugun bor, ertaga yo'q. Hammasi pishib, hilvirab turgan narsalar. Bpttasini surishtirmay olib bersagu uch kun o'tmay o'lib bersa. Nima, uch kunlik omonat ona deb bir yil qora kiyib yuramizmi? Yaxshilab surishtirish kerak.

G'ani (toqati toq bo'lib). Axir, nima qil deysan, jon bolam.

Nazmi. Boyagi ro'yxatni menga beringlar. Poliklinikadan hammasni delosini olib, o'qib chiqaman. O'ladiganini o'ladigan, qoladiganini qoladigan qilib, ajrataman. Ana shundan qilib joni qattig'ini tanlaymiz.

Quadrat. Kallangga qoyilman!

G'ani. E, kallasi qursin.

Maxsum jindek kayf bilan kiradi.

Maxsum. Salomlar bo'lsnn.

Rahima. Nima balo, kayfingiz bormi? Unaqa odatingiz yo'q edi-ku, kuyov to'ra.

Maxsum. To'ydan kelyapman, kelinposhsha.

Nazmi. Qanaqa to'y? Ertalabdan qaysi go'rda to'y bor ekan?

Maxsum. Imi-jimida to'y, xotin. Xufiya to'y. Orif sariqni qaynonasini erga berib kelyapman. El uyg'onmasdan to'yni qilib, bitta kinomexanikka uzatdik. Kelinni jo'natib, Orif aka ikkovimiz kelin-kuyov sog'ligiga jindek-jindek qildik.

Bahri. Qaysi kampirni aytyapsiz?

Maxsum. O'zing tushuntir, xotin. Kelinposhshaning mahallasidan-da. O'zingiz tushuntiring, kelin. (Rahimaga qaraydi.) Tilim kelishmayapti.

Rahima. Boya men aytgan Orif sariqning qaynonasi erga tegib ketipti.

Hamma bir-biriga hayron qarab qoladi.

G'ani. Shuni ham xudo ko'p ko'r-di-ya. Olg'irlar ilib ketishipti-ya!

G'ani xo'l kiyimlar solingan tog'orani ko'tarib, ko'cha eshigi tomon yuraboshlaydi.

Nazmi. Ha, qayoqqa? (Sevinib.) Kuyov to'ra?

G'ani. Avtobus istansasiga. O'sha yerda kir yuvaman. Ahvolimni butun qishloq, butun rayon, butun oblastCH bilsin.

Erkin. (Kesatib). Ko'chada kir yuvishingizni chet el radiosida ham gapirib qolishsa kerak. Bu ishingiz - g'irt xato.

Quadrat. Kattalarning gapiga aralashma, deb necha marta aytganman. (Dadasini orqasidan). Hoy, dada, bizni sharmanda qilmang.

Hoy, dada...

Gapi og'zida koladi. G'ani ko'chaga chiqib ketadi. Hamma jnm, faqat Nazmi xursand.

Parda

Ikkinchi Parda

Ikkinchi Ko'rinish

Yana o'sha hovli. Chorboqqa ochilgan eshikdan limonxonaning ich tomoni ko'rinib turipti. G'uj-g'uj limonlar ko'zga tashlanadi.

Rahima hovli supuryapti. Tomda, cherdak eshigidan Erkin ning boshi ko'rinib qoladi. U nimanidir qidirayapti. Eshikdan Bahri kiradi.

Bahri. Yaxshi o'tiripsizmi, kelinposhsha. (U yoq-bu yoqqa qarab). Dadam ko'rinmaydilarmi?

Rahima (u bilan ko'risharkan). Sartaroshga kiraman, hammomga tushaman, deb, sochiq qo'ltiqlab chikib ketgandilar.

Erkin (cherdak eshikhasidan boshini chiqazib). Oyi, oyi, manavi nima? (Hovliga bir boylam qog'oz tashlaydi.)

Rahima. Nima balo ekan? (Qog'oz boylamining changini qoqib ocha boshlaydi.) Eski-tuski qog'ozlar-ku.

Bahri. Hovlining vasiqalaridir-da. (U ham qog'ozlarni titkilab.) Quadratning frontdan yozgan xatlarimasmi?

Rahima. Ukangizning xatlari uchburchak buklangan bo'lardi. Hammasini pachka-pachka qilib, ipga boylab, sandiqqa solib qo'rganman. Bu boshqacha xatlarga o'xshaydi.

Bahri (bir xatni qo'liga oladi). Voy, o'lsin, lotincha yozilgan-ku. Ko'ring-chi, siz eskicha o'qigansiz, bilarsiz. (Qog'oz orasidan bir surat yerga tushadi. Shoshib uni oladi va tikilib qoladi.) I-i-y-ya. Yo tavba! Manavinisi dadamlar-ku!

Rahima (u ham suratga tikilib). Voy, rost. Juda yosh paytlari ekan. Yonlaridagi kim bo'ldi? Oydek narsa ekan. Qosh-ko'zlari popukdek. Burnilari chimchilab qo'ygandek. Qarang-a, ikkovlari boshlarini boshlariga tegizib tushishgan ekan.

Bahri. Shoshmang, shoshmang. Peshonalari, iyaklari ko'zimga juda tanish ko'rinyapti.

Rahima. E, o'lsin. Anavi Zumrad kampir-ku.

Bahri. Bo'ldi, bo'ldi, o'shaning o'zi. Voy o'lmagur-e, yoshligpda judayam chiroyli bo'lgan ekanmi?

Rahima. Haliyam chiroyli. Qosh-ko'zlari yonib turadi. Bu suratning olinganiga kamida ellik yil bo'lgan chiqar.

Bahri. To'g'ri. Ellikdan kam emas.

Rahima. Dadamiz yoshliklarida juda uxajorniy bo'lgan ekanlar, deyman.

Bahri. Dadam hali ham bo'sh kelmaydilar. Kampirlarnp ko'rsalar, og'izlaridan so'lak oqadi.

Erkin (pastga tushib, kiyimlaridan changni qoqarkan). Oyi, qanaqa qog'ozlar ekan?

Rahima. Arzimagan, keraksiz qog'ozlar...

Erkin. Menga bering, o'choqqa oborib yoqvoraman.

Rahima. Yo'q, unaqa qilma. Balki kerak bo'lib qolar.

Bahri. Bor! Sen aralashma. Undan ko'ra uyni qorong'i qilib, kecha olgan suratlarini ishlab chiq.

Erkin. Shoshmang, lentam qurisin. Rosa qiziq suratlar olganman. Qishloq u yoqda tursin, butun rayonni aylanpb, jamiki kampirlarning suratini olib kelganman. Hammasp vo chiqqan!

Erkin uyga kirib ketadi.

Rahima. Qani, xatni o'qib ko'raylik-chi. (O'qiydi.) Vafoli yorim G'anivoy aka!

Bu kecha opga qarab sizni o'yladim. Ko'z oldimga Alpomishdek qomatingiz kelaverdi. Zebining to'yiga kuyovnavkarlar kelganda, siz surnaychining orqasida ekansiz. Devordan qarab turgan edim. O'zim tikib kiydirgan do'ppini boshingizda ko'rib, yuraklarim dukillab urib ketdi. Belingizdagi belboqqa g'azal bitgandim. O'qib ko'rdingizmi, yorim? Bugun ertalab akam bir gap topib keldilar. Siz tegprmon boshidagi Akrom duquqning qizi Obidaga uylanarmnshsiz. Shu gapnp eshitib, ko'zlarimga dunyo qorong'u bo'lib ketdi. Nahotki rost bo'lsa! Kolxoz bog'ida, oy tepamizga kelganda yig'lab-yig'lab nima degandingiz? Nima degandingiz, bevafo?!

Dadang bermasa, narigi qishloqqa qochib ketamiz, sendan boshqasini olsam, otimni boshqa qo'yaman, demaganmidingiz?

Bilib qo'ying, to'yingiz bo'lgan kuni ko'chaning boshidan surnay chaldirib siz kelasiz, bu boshidan tobutda men kelaman...

O'zimni osib qo'yamasam, Shohimardon pirim ursinlar.

Ushbu maktub xatni ko'z yoshlarim, jigar qonlarim bilan yozdim. Baxtsiz yoringiz Zumrad, deb bilgaysiz.

1938 yil, javzo oyining 19 inchi chahorshanba kump".

Bahri. Voy-bo'! Oshiqlik manavunaqa bo'larkan.

Rahima. Dadam rosa bevafoqlik qilgan ekanlar. Bechora qon qaqshab qolgan ekan.

Bahri. Iy, iy... orqasini qarang, yana nimalar yozilgan.

Rahima (xatning orqasidagi yozuvni o'qiydi). "Agar o'sha Akrom duduqning qiziga uylanadigan bo'lsangiz, to'y kuni hovlidagi

behining shoxiga o'zimni ospb qo'yaman. Bilib qo'ying, xat qoldiraman. O'zimni o'ldirishimga nima sabab bo'lganini yozib

qoldiraman. Yurtga o'zingiz javob qilasisiz.

Bu olamdan ko'zim yumsam, G'anining dastidan, dsnglar..."

Bahri. Voy, g'azalga dadamni nomlarini ham kiritvoribdi...

Rahima. Kuyib ketgan-da, bechora. Voy, rost, bir gap bo'lgan edi. Zumrad xola yoshligida bitta yigitni yaxshi ko'rib qolib, o'zini osgan deyishuvdi.

Bahri. Shunga o'xshagan gap bo'luvdi shekilli.

Rahima. Kap-katta xotin nega marvarid taqadi, desam, ha, bildim. Tomog'imdagi arqon izi ko'rinmasnn, deb taqarkan-da.

Bahri. Burma yoqa ko'ylak kiyishi ham shundan ekan-da.

Rahima. Zumrad xola haliyam suqsurdek.

Bahri. Figurasiyam saqlangan. G'ozdek yuradi. Basharasida bitta ham ajin yo'q.

Rahima. Terisini torttiradi, o'rgilay, torttiradi.

Bahri. Qo'ysangiz-chi, yo'-o'q, bo'lmagan gap. Bitta artistkani bilaman. Terisini torttirganda bir ko'zi qulog'ining oldiga borib

qolgan. Gajagi o'sha surilgan ko'zp ustidan osilib turadi. Yo'-o'q, Zumrad xola terisini torttirmagan. Asli toza xotin. Sira

aynimaydi. Qizlarinn bilasiz-ku. Qandoq chiroyli. Asal aynimas, saryoq sasimas, deb shuni aytishadi-da. Qani, boshqa xatlarni

ham bir titib ko'raylik-chi (qog'oz o'ramlarini titkilab, bir surat oladi). Voy, o'lay, bu qanaqasi?! Tag'in bittasi bilan suratga tushgan ekanlar.

Rahima (suratni oladi, tikilib saraydi). E, o'lsin. Bu anavi agronomni onasi Rahbar xola-ku. (Orqasidagi yozuvni o'tsiydi.) "Ushbu surat Termiz shahrinda, 1939 yilning asat oyinda suvratchi Ashot Karapetyan tomonidan olingan".

Bahri. Dadam uylanganlaridan keyin ham tinch yurmagan ekanlar-da.

Rahima. Voy, siz bilmaysiz. Dadam shu Rahbar xola bilan Termizga qochib ketganlarida, tog'asi aeroplanda uchib borib besh kun

deganda topib, olib kelgan. Kelgandan keyin Toshkentdagn katta do'xtirlarga ko'rsatishgan ekan. Manavi surat o'lgurni o'shanda oldirishgan-da.

Bahri. Oyim bechorani ham ko'p kuydirgan ekanlar.

Rahima. Nimasini aytasiz. (Yana qog'ozlarni titkilashadi).

Bahri. Qanaqa xatlar ekan?

Rahima. Buyog'idagi xatlarning hammasi Zumrad xolaniki. Fakat bittasi Rahbar xolaniki. (Xatni ichida pichirlab o'qiydi.)

Termpzdand qaytarib olib kelishganda, uyida qandoq hangomalar bo'lganini yozipti. Akasinpng urganimi, dadasining, yerto'laga qamab qo'yganimi, onasining tuynukdan non tashlaganimi, G'anijon, deb dodlaganimi, hammasini yozipti.

Bahri. Tavba! Erkaklarning xunuk-chiroyligi bo'lmas ekan-da. Dadamning nimasiga oshiq bo'lishadi. Shaldir-shuldur qoqsuyak bo'lsalar.

Rahima. Unaqa demang. Dadamning ko'zlarida ajinalari bor. Xotin kishi, bir qarasarlar, o'q tekkan kaptardek tappa-tappa yiqilaveradi. Yaxshilab tikilsalar, xotnnkn zoti bor, ilon avragan quyondek esankiraydi-qoladi.

Bahri. Endi bo'ldi. Xatlarni kechqurun ermak knlamnz. Nazmixon qaynsinglingiz kelib qolsa, hamma xatlarnn tortib olib, dadamni sharmandai sharmisor knladi. (Ichkariga sarab.) Hoy, Erkin bu yoqqa chiqqin!

Erkin (ichkaridan ovoz beradi). Birpas sabr qi.ting, hoznr chiqaman.

Rahima. Bir narsa esimga tushib qoldi. Bilasizmi, dadam bolalarni batareyali chirog'ini ko'tarib, tomga chiqib ketganlaricha, soatlab yo'q bo'lib ketardilar. Tomda nima qilasisiz, dada, desam, uyga chakka tomyapti, shuni suvayapman, derdilar. Voy, dada,

saratonda ham chakka o'tadimi, desam, ko'pam mahmadona bo'lma, derdilar. Endi bildim, xatlarni chnroqqa solib o'qirkanlar-da. Tomdan kuzlari qizarib, o'pkalari to'lib, xo'rsinib tushardilar.

Bahri. Yoshlikda bergan ko'ngil, ayrilmas balo bo'lar, o'rgilay. Eski muhabbatlarning yarasini yangilab tusharkanlar-da.

Erkin (chiqadi). Nima deysiz, oyi?

Rahima. Bu yoqqa kel, bolam. Manavi suratlarni apparatingda ko'chirib, katta qilib ber. Shu bugun tayyor bo'lsin, xo'pmi?

Erkin (suratni qo'lga olib). Kim ekan? Iya, otamlar-ku. Yonlaridagi kim? Buvimlarmi?

Bahri. Gapga aralashavermay, oying aytganini qil. Kechgacha tayyor bo'lsin.

Erkin (xech narsa tushunmay). Xo'p. Bo'пти. Kattaroq bo'laversinmi?

Rahima. Qancha katta bo'lsa shuncha yaxshi.

Erkin. Bo'пти, qotiramiz.

Bahri. Shoshma, bola. Dadamni suratlaridan ham besh-oltitasini kattalashtirib qo'y, kerak bo'ladi.

Rahima. Ordenlar bilan tushgan suratlaridan bo'lsa yana yaxshi. (Erkin "xo'p, xo'p", deb yana uyga kirib ketadi).

Bahri. Oyim rahmatli ko'p mo'min-qobil xotin edilar-da. Dadamning shuncha qiliqlarini ham kechirib kelganlar.

Rahima. Siz bilmaysiz, rahmatli dadamni jamiki kiyimlariga munchoq taqib tashlagan edilar. Kir yuvganimda ko'rganman.

Munchoq deysizmi, tumor deysizmi, hammasidan bor edi. Bari bir foydasi bo'lmagan. O'sha Zumrad xola bilan tut tagida gaplashib turganlarida ushlab ham olganlar.

Shu payt Nazmi qo'lidagi og'ir tugunni arang ko'tarib kirib keladi.

Nazmi. Yaxshi o'tiribsizlarmi? Nima balo, hammayoq jimjit.

Bahri. Jimjit bo'lsa, ana, siz keldingiz, to'polon endi bo'ladi-da.

Nazmi. Dadam qanilar? Kuyov bola ko'rinmaydilar?

Rahima (ma'noli silib). Sartaroshga kiranman, undan keyin hammomga tushaman, deb chiqib ketganlar.

Nazmi. Shundo-og' deng... Juda o'zlariga oro berib qoldilar. Tavba! Qari odam jikillab yursa, yarashmas ekan.
Bahri. Dadangiz qachon jikillamagandilar. Hammavaqt serkning otidek gijinglab turadilar-ku!
Nazmi. Kech qoldim, deb yugurib, o'pkam og'zimga keldi. Ximchistkaga u-bularni bergan edim. Qani akam?
Bahri. Kelib qolar. Ishdan chnqib keladi-da.
Nazmi. Erkin nima qildi? Suratlarini oliptimi? Qachon ko'rarkanmiz?
Rahima. Onali bo'laman, deb shoshib ketyapsiz-da, singiljon. Hali kelsa ko'rarsiz, kula-kula o'larsiz. Judayam shoshmang.
Onachangiz kelar ham, qilg'ini chiqazar ham, o'rtaqa sovuqchilik tushar ham.
Shu payt eshik oldida mashina to'xtagan ovoz eshitaladi. Bir ozdan ksyin eshikdan Quadrat bilan Maxsum kiradilar.
Maxsum. Kino boshlangani yo'qmi?
Nazmi. Qanaqa kino?
Maxsum. Xotin tanlash kinosi. Erkinjon olgan qo'lbola kino.
Nazmi. Shundo-o demaysizmi?
Bahri. Erkinni chaqiringlar, kech kirib, qorong'i tushib qoldi. Devorga parda-mardasini ossin. Dadam kelishlari bilan kinoni boshlaymiz. Dadamning o'zlaridan darak yo'q-ku.
Quadrat. Xotinlar hammomi oldidagi sartaroshxonada ko'rgandek bo'luvdim.
Bahri. Yo tavba! Xotinlarning hidi keladi, deb atayin xotinlar hammomi yonidagi sartaroshxonaga boriptilar-da. Bo'lmasam qishlokda yettita sartaroshxona bor-a!
Quadrat. Hammomdan qip-qizil bo'lib, bug'lanib chiqayotgan xotinlarni ko'rib, sal bo'lsa ham xumorlari bosiladi.
Maxsum. Sartaroshxonadan chiqib, xozmagga kiriptilar. Ikkita sham olib, etikning qo'njiga qistiriptilar. Undan keyin gulchi o'rtoqlarinikiga borib, bir dasta antiqa gullardan olib, Qo'shtut tomonga ketayotganlarini odamlar ko'rishihti.
Nazmi. V6y, men o'lay. Dadam birorta yer yutkur kampir bilan kechasi, xoliroq, elektr yo'q joyda uchrasharkanlar. Sham yoqib qo'yib gaplasharkanlar. Gul ham o'sha o'lgur shum kampirga olingan.
Bahri. Oshiq-moshiqlik ham evi bilan-da. Gul ko'tarib, svidaniyaga borish yosh-yalangga yarashadi.
Rahima. Dadangizniki boshqacha, o'rgilay. Gulning yonida shami ham bor.
Erkin (uydan chitsib). E, ha-a! Qorong'i tushipti-ku. Kinoni boshlasak ham bo'lar ekan.
Qaytib kirib ketadi. Bir ozdan keyin yelkasida oq surp chodir, qo'lpda proyektor apparatn bilan chiqadi. Apparadni taburstka ustiga qo'pib, shurni ayvondagi rozstkaga tiqadi.
Pardani dsvorga o'rnatadi.
Mana, bpz tayyor. Uchinchi signaldan keyin tomosha zaliga odam qo'yplmaydi.
Quadrat. Shoshma, bola. Dadam kelsinlar. U kishi bo'lmasalar, tomoshang bir pul. Dadam qayoqda qolib ketdilar? Qorong'i tushib qoldi-ku.
Bahri. Bironta tashlandik tegirmondami, ovloq dala shiyponidami jononlari bilan o'tirgandirlar.
Nazmi. O'liptimi. Qorong'n tushib qolganda-ya?
Rahima. Qorong'i tushishi aynn muddao-ku. Sham yoqadilar.
Nazmi. E, shamlari qursin, tutamay.
Bahri. Unaqa dema, jinni. Shamni fonusga qo'yib, gul hpdlab, yayrab-yayrab o'tnrgandirlar.
Shu payt eshikdan G'ani kiradi. Ularning gaplariga birpas quloq solib turadi. Keyin yo'taladi. Hammalari unga o'girilib qaraydilar.
Maxsum. Qayoqlarda qolib ketdingiz, dada?
G'ani. Juda mehribon bo'lib qopsizlarmi? Yurgandim sanqib.
Nazmi. Qayoqlarda yurgashshgizni bilamiz. Sizga bunaqa qiliqlar yarashmaydi, dada.
G'ani. O'zimda ayb. Kenjatoyim deb ko'p erkalatdim. Ona qizim, deb erkalatdim. Oppoq qizim deb erkalatdim. Nima desang, olib berdim. Lo'mbozdek bo'lib qolganingda ham toyloqdek qilib, opichib yurdim. Ana shunday qilib, boshimga chiqazib oldim. Tiling juda ham burro bo'lib ketdi. Na kattani bilasan, na kichikni. Ayb o'zimda.
Nazmi. Men tog'dan kelsam, bu knshi bog'dan keladilar. Bu gapni gapga nima aloqasi bor. Qayoqda yuribsiz, desam, erkalatib, boshimga chiqazvorganman, deysiz. O'zi sizga bir balo bo'lgan. Bitta megajin boshingizni aylantirib, lakalov qilib qo'ygan. Bo'lmasam kap-katta odam kuppa-kunduzi ko'chaning o'rtasida sham yoqib, gul ko'tarib yuradimp?
G'ani. E, gap bu yoqda ekan-ku. Og'zim bor deb, gapiraverasanlarmi! Sartaroshga kirib, sochimni oldirdim, undan keyin hammomga tushdim.
Nazmi (kesatib). Xotinlarning hammomiga tushdingizmi?
G'ani. V6y, qanaqa odamsan o'zing. Axir bugun hammom erkaklarga ishlaydigan kun. Sani ering umrida hammomga tushmagan-da, bilmaysan. Saratonda eringni yoniga borib bo'lmaydi. Undan sasigan tuxum hidi keladi.
Maxsum o'zini chetga olib, yoqasinn hidlamoqchi bo'ladi.
Nazmi. Erimga tpl tekkizmang. Yilda bir mara cho'milsalar ham, juda toza yuvinadilar. Undan ko'ra nimaga gul ko'tarib yurganingizni gapiring. Kuppa-kunduzi sham yoqib xaloyiqqa ermak bo'lib yurganingizni gapiring.
G'ani (tajang ahvolda). E, esi yo'q. Sen nimani bilasan. Mozorboshiga bordim. Oyingni qabriga sham yoqdim. Gul qo'ydim. Obidaginam uch kundan beri tushimga kirib, uxlatmaydi. (Hammalari birdan jim bo'lib qolishdi).
Rahima (Bahrining qulog'iga shivirlaydi). Dadamga insof kirganga o'xshaydi. Sovchilik bekor bo'ldi-yov.
Bahri. Zora shundoq bo'lsa. Mozorboshiga borib, tavba qilganga o'xshaydilar.
G'ani (ularning pichirlashayotganlariga jahli chiqib). Yana nima deb ig'vo qilyapsizlar. Men borib Obidaginamdan rozilik olib keldim. Yolg'iz qoldim, dedim. Yakkamoxov bo'lib qoldim, dedim. Kelinlaringga, kuyovlaringga, qizlaringga, o'g'illaringga ermak bo'lib qoldim, meni odam o'rmda ko'rmay qo'yishdi, dedim. Hayxotdek uyda bitta o'zim arvoqga o'xshab tong ottiryapman. O'lib qolsam, bir haftadan keyin, sasib ketganimdan keyin bilishadi, dedim. Meni kechir, bir tanmahram kerak bo'lib qoldi, dedim. Qariganda yotar-turarim bor, issiq-sovug'im bor, dedim. Mana, qish kelyapti. Pechkani oloviga tikilib, tong ottirish osonmi? Qish kechasidek uzun kecha olamda bo'lmaydi. U yoqqa yuraman, bu yoqqa yuraman, deraza oldiga kelib o'tiraman. Ko'chaga chiqay desam, sovuqda qayoqqa boraman. Men tengi chollar kampirining qo'ynida orqasini qashlatib yotipti. Qaysi kovakka sig'aman, o'zing ayt, dedim. Meni hech qaysi o'rtog'im mehmonga chaqirmay qo'ydi. Hammasi mendan kampirinn qizg'anadi. To'ylarga borganimda qaysi joyga o'tirsam, o'rtoqlarim kampirini qo'ltig'idan ko'tarib, boshqa yoqqa borib o'tiradi. Yangi yil kutgani qishloq veteranlari pul yig'ishib, xotinlari bilan klubda o'tirish qilishdi. Meni aytishmadi. Nega aytmadilaring, desam, xotini borlarni

aytdik, deyishdi. Obida, endi rozilik ber, bir boshimni ikki qilay, dedim. Shunday qilib, oninglarni roziligini olib keldim. (Hamma jim. Hech kimdan sado chiqmaydi.)

Bahri. Dadajon, bunchaligini bilmagan ekanmiz. Bizni kechiring. Ustingiz but, qorningiz to'q bo'lsa bo'ldi deb, yurgan ekanmiz. Rahima. Tani boshqa dard bilmas, degandek, bu yog'ini o'ylamagan ekanmiz. Sizga juda-juda qiyin bo'lib ketgan ekan. Qudrat. Dada, meni kechiringu aslini olganda, uylanishingiz eshitgan quloqqa juda xunuk gap. Ammo... men juda ko'p o'yladim. Bunaqada, odamlar nima derkin, deydigan bo'lsak, bu yorug' jahonda yashab bo'lmaydi. Odamlar nima derkin, deb ZAGSga bormay, to'ylar qildik. Mana, yoshlar ZAGSdan o'tib, to'y qilishyapti, hech kim bir nima deyaotgani yo'q. Odamlar nima derkin, deb uy qurganimizda ko'cha tomonga deraza ochmasdik. Mana, ochdik, hech kim kechasi kelib, er-xotin yotganimizda derazadan mo'ralayotgani yo'q. Ko'chaga er-xotin chiqqanimizda odamlar nima derkin, deb o'zimiz oldinda, xotinimiz ketinda yurdik. Mana, kuppakunduzi padrushka qilib yuribmiz. Hech kim bir nima deyaotgani yo'q. Endi odamlar nima derkin, deb sizni uylantirmay yurgan ekanmiz. Uylantirganimiz bo'lsin. Odamlar bir kun gap qiladi, ikki kun gap qiladi, qarabsizki, o'rganib ketishadi. Gapirmay qo'yishadi. Gapirish qayokda, shunaqa gap qiladigan beva chollarning o'zlari uylanish harakatiga kirib qolishadi. Erga tegmayman, deb noz-firoq qilib yurgan kampirlar ham qimirlab, devordan mo'ralab, chol tanlaydigan bo'lib qoladilar.

G'ani. Ammo-lekin, Qudrat, gapning o'g'il bolasini gapirding. O'qigan odam boshqa ekan-da. Og'zingda ilming bor seni.

Erkin. Meni ham o'zinga yarasha ishlarim bor. Kino ko'radigan bo'lsanglar, boshlay, bo'lmasam dov-dastgohimni yig'ishtirib, boshqa tirikchiligimni qilay. Boshlaymi?

Maxsum. Boshlang, bir ko'rib qo'yaylik.

Erkin (devordagi chodir yoniga kelib). Aziz tomoshabinlar. Bugun biz sizlarga "Qishlog'imiz va rayonimizning piri badavlat kampirlari" degan filChm namoyish qilamiz. Siz bu filChmda kolxoz veteranlari, II Jahon urushi yillarida erlari o'rniga dalaga chiqib ketmon chopgan, paxta tergan fidokor, vafodor, ajoyib farzandlar o'stirgan qahramon, kolxoz dalasida fidokorona mehnat qilib, paxtadan eng yuqori hosil olgan tabarruk paxtakor, har quti urug'dan 125 kilodan pilla olgan pillakor, har bir sigirdan yiliga uch tonnadan sut sog'ib olgan (o'tirganlarga qarab) ko'p sut soqkanlarni nima derdi? Sutkor dermidi, sigirkor dermidi?

Maxsum. Bari bir, nima desangiz ham bo'laveradi.

Erkin. Ajoyib sut sog'uvchi onaxonlarimizni ko'rasiz. Ularning har biri vatan oldida, xalq oldida, qilgan ajoyib xpzmatalari uchun orden hamda medallar bilan mukofotlanganlar. Bu ajoyib, pokiza, beminnat, mehribon, vafodor, bolajon...

Nazmi. Gapni cho'zmay, kartinkangni boshlayvermaysanmi? Muncha cho'zasan.

Erkin. Qoidasi shunaqa-da, ammajon. Shunday qilib, kampirlar to'g'risidagi diafilChmimizni boshlaympz.

Maxsum. Nima deding? MulChftfilChm dedingmi? Kampirlar endi mulChftfilChm bo'ldimi?

Erkin. MulChftfilChm emas, diafilChm. DiafilChmda faqat surati ko'rinadi. Qimirlamaydi ham, gapirmaydi ham.

Qudrat. Shundoq demaysanmi, bolasi tushmagur.

Erkin pardaga oq xalat kiygan, qo'lida sigir sog'ish apparatini ushlagan kampirning suratini tushiradi.

Erkin. Bu dongdor sigir sog'uvchi - Xolnisa ona Erkayeva. Bu tabarruk onaxonimiz har bir sigirdan yilliga uch ming litrdan sut sog'ib oladi. Beva, eri 1956 yilda vafot qilgan. Ikki qizi erga tekkan. O'rtancha o'g'li bilan birga turadi. Kelini bilan orasi buzilgan. Omonat kassada yetti ming so'm puli bor. OblastCh miqyosidagi pensiya ham oladi. Qalay, bo'ladimi?

Hech kimdan sado chiqmaydi.

Nazmi. Bo'lmaydi, bu kampir nos chekadi. Boshqasini ko'rsat.

Erkin. Bo'пти.

Ekranga tovuqlar orasida bir savat tuxum ko'tarib turgan kampirsho suratini tushiradi.

Asal xola. Mashhur tovuqboqar. Ikkita medali bor. Xalq xo'jaligi ko'rgazmasining qatnashchisi. To'rt qizi bor. Uzatilgan.

Nevaralari ham bor.

Kattakon hovlida bir o'zi turadi. Yaqinda sigiri tuqqan. Sutini tekinga yasliga beradi. Baland poshnali tufla kiyadi. Ulama soch taqadi. Qalay, bo'ladimi?

Nazmi. Bo'lmaydi. Sochidan suzma xaltaning hidi keladi.

Rahima. Uni undoq, buni bundoq deya vermang-da. Boshidan suzma xaltaning hidi kelishi sochini qatiqlab yuvganidan. Erga tegsa, har kuni cho'miladi. Hidi qolmaydi.

Nazmi. Bo'maydi, bo'maydi. Boshqasini ko'rsatsin.

Erkin. Xo'p, xo'p, dedim-ku. Talashmanglar, manavi qutida hali kampir ko'p. Tong otguncha ko'raman, desangiz ham yetadi.

Ekranga magazin prilavkasi oldida turgan gajakdor bir juvonning suratini tushiradi.

Respublikada xizmat ko'rsatgan savdo xodimi Jamila Olloyorova. "Savdo a'lochisi" nishoni bor. Yoshi ellik to'qqizda. Onasi uyg'ur, otasi namanganlik. Bitta o'g'li bor. Ichkuyov bo'lib, xotininikiga ketib qolgan. Har gal bola tuqqanda opkelib tashlab ketadi. Jamila xola shunaqa bolalardan yettitasini boqib, voyaga yetkazgan. O'g'li yilda bir kelib, Jamila xolaning topgan-tutganini mashinaga bosib, olib ketadi. Kelini bilan yuz ko'rmas bo'lgan. O'zi juda bolajon xotin. Ozoda. Qozonni ham, choynak-piyolani ham atir sovunda yuvadi. Magazinga kelgan fransuz atirlarini sotmay, o'ziga olib qoladi. Undan gup-gup atir hidi keladi. Uchastkovoy milisaning dadasi olaman deganda tegmagan. Qalay, bo'ladimi?

Qudrat. Boshqasini ko'rsat. Bu xotin yoshligida sal anaqaroq bo'lgan. Aytib bo'lmaydi. Ammo-lekin puli ko'p. Boshqasini ko'rsat.

Erkin. Xo'p dedim-ku. O'zim ham bo'lmasov, deb o'ylagan edim-a. Mana, boshqasini ko'rsataman.

Ekranga vslosiped minib ketayotgan oltmish yoshlardagi xotin surati tushiriladi.

Anzirat xola. Hammanglar taniysizlar. Velosiped poygasida xotin-qizlar orasida birinchi o'rinni olib, chempion bo'lgan. Hozir ayollar o'rtasida respublika velosiped poygasiga tayyorgarlik ko'ryapti. Har kuni kechqurun soat oltidan keyin katta tosh yo'lda mashq qiladi. Eri yo'q. Ajrashgan.

Bahri. Qo'y, bunaqalar dadamga to'g'ri kelmaydi. Ikki kunda adoyi tamom qiladi.

G'ani. Darrov yo'qqa chiqarmanglar-da. O'ylab ko'rish kerak. Hozircha ro'yxatga kiritib qo'yaveringlar, o'ylashib ko'ramiz.

Nazmi. Voy, savil, shunga ko'ngillari ketganga o'xshaydi. Hoy, dada, o'ylab gapiryapsizmi? Agar shuni oladigan bo'lsangiz, bu uylarga o't qo'yvoraman.

G'ani. Muncha shoshasan. Olaman deyaotganim yo'q-ku. Nihoyati ro'yxatda turatarsin, dedim, xolos.

Rahima. Ha, rost, shunaqa dedilar. Mayli, boshqasini ko'rsataqol.

Erkin. Xo'p, dedim-ku.

Ekranga cho'milish kiyimidagi oltmish yoshlardagi xotinning hovuz bo'yidagi tolga suyanib turgan tasviri tushiriladi.

Bu ayamizni butun qishloq, butun rayon, hatto oblastda ham Morj aya deyishadi. Qumrixon aya qirchillagan qish chillasida ham hovuzning muzini teshib cho'miladi. Sovuq zabtiga olgan, tarnovlarga muz osilgan, asfalCHt yo'llar oynadek yiltirab muz boylaganda, odamlar po'stinga o'ralib yurganda bu Morj aya kanalda cho'miladilar. Ba'zan mahalla hovuzidagi muzni lom bilan teshib, ichiga tushib o'tiradilar. Yoshlari oltmishda. Ikki qiz, bir o'g'illari bor. Nevaralari ham ro'zg'orli bo'lib ketgan. Kattakon hovlida bir o'zlari turadilar. Bir sigir, to'rt qo'y, o'n oltita tovuqlari bor. 110 so'm pensiya oladilar. Kassada ham uncha-muncha pullari bor. Sotsial ta'minot ministriligidan yiliga bir marta markaziy kurortlarga putyovka berishadi. Qora dengiz hamda Boltiq dengizlarida cho'milib, badanlarini oftobda qoraytirib keladilar. "Ogonyok" jurnalining muqovasida rangli suratlari chiqqan. Ana shundan beri butun dunyodagi chollardan oshiqona xatlar kelib turadi. OblastCH bo'yicha qishda muzni teshib cho'miladigan morj xotinlar seksiyasiga boshchilik qiladilar. Yaxshi dutor chertadilar. Yalla aytishda bu ayaga teng keladigan qo'shiqchi yo'q. Yilda bir-ikki marta radioda shu aya aytgan qo'shiqlardan eshittirib turishadi.

G'ani. Shuni yozib qo'yinglar.

Bahri. Yoqmay o'lsin. Sizga tegarmidi. Ne-ne qo'shqavat belbog' boylagan chollarga tegmagan, sizga tegarmidi.

Maxsum. Hozircha yozib qo'yatinglar.

Nazmi. Voy, qo'yinglar. Qishda ham dadamlarni muzda cho'miltirib vaspaliniy lokki qilib qo'yadi.

Quadrat. E, o'rganib ketadilar.

Maxsum. Yaxshi bo'ladi. Har kuni ertalab lungi ko'ltilqab hammomga borib yurmaydilar. Yozib qo'y ro'yxatingga.

G'ani. Har kuni emas-e..., yoshim ketib qolgan.

Nazmi. Muncha kampir tanlaysizlar? Dadamga nomiga xotin bo'lsa bo'ldi-da.

G'ani. Og'zingga qarab gapir. E, esi yo'q.

Rahima. Xo'p, ro'yxatga oldik. Erkin, o'rgilay, bu yog'idagilarni ko'rsat.

Erkin. Xo'p, dedim-ku. Mana.

Ekrranga "Moskvich" rulida o'tirgan Zumrad kampirning surati tushiriladi. Ko'kragida qator ordenlar. Qoshiga o'sma qo'ygan.

Bo'ynida qavat-qavat marvarid.

Bu qishlog'imizning sobiq sakson sentnerchi paxtakori. Xalq xo'jaligi yutuqlari vistavkasining bir oltin, ikki kumush medallariga sazovor bo'lgan, tekinga "Moskvich" mashinasini mukofotga olgan Zumrad aya Xamroqulova.

Nazmi. Voy dod! Ayam rahmatli dadamni shu xotin bilan tegirmonning orqasida ushlab olgandilar.

G'ani. Og'zingga qarab gapir. Lotereya tekshirayotgan edik.

Nazmi. Lotereyani tegirmon orqasida, qorong'i tushganda tekshiradimi?

G'ani. Tegirmon derazasidan yorug' tushib turgan edi.

Quadrat. Un gardi o'nashib qolgan tegirmon derazasidan yorug' tushadimi? Bo'ladigan gapni aytasangiz-chi, dada.

Erkin. Nima qildinglar? Ro'yxatga kiritasizlarmi, yo'qmi? Boshqasini ko'rsataveraymi?

G'ani. Shoshma buni ham ro'yxatga kiritib qo'y. Albatta kirit.

Erkin. Xo'p, xo'p, dedim-ku.

Bahri. Dada, ro'yxatingizda kampir to'lib ketdi-ku.

G'ani. Ha, endi ehtiyot shart-da. Biri bo'lmasa, biri bo'lib qolar, deyman-da.

Bahri. Pishiqsiz-da, dada. Ammo-lekin Zumrad xolani suratlarini ko'rib boshqacha bo'lib ketdingizmi?

Rahima. Zumrad xola shuncha yoshga kirsayam, basharasida bitta ajin yo'q. Ikki yuzidan qon tomaman, deydi. Figurasiyam balerialarnikidan qolishmaydi. Yurganda qaddini bukmay, g'oz yuradi. Gapirganda basharasini tirishtirmay, tekis gapiradi.

Nazmi. Qayokdan bilasiz figurasi yaxshiligini? Bo'lmagan gap. Hoynahoy ichidan belini sirib boylab yurar.

Bahri. Qo'ysang-chi, hammomda ko'rganman... Boylamagan.

Nazmi. Bari bir bo'lmaydi, bo'ynida chandig'i bor.

Rahima. Bu gagingiz to'g'ri. Bo'ynida chandig'i borligi rost. Bechora yoshligida bir yigitga oshiq bo'lib (G'ani tomonga imlab qo'yadi), o'shaning ishqida o'zini hovlisida behiga osgan ekan.

G'ani. Hoy, hoy! Nimaga shama qilyapsan? Nega meni imlab ko'rsatasan? Bu gaplar tuhmat.

Rahima (uning gapiga parvo qilmay davom etadi). Chandig'ini bekiteish uchun o'ziyam o'n bir qavat marvarid, to'rt qavat dur taqib yuradi.

G'ani. Bo'пти. Ko'p vaysayvermalaring. Yoz, dedimmi, yoz! Xotin tanlaydigan menmi, yo senlarmi? Qani, yana bormi?

Erkin. Bor, mana.

Ekrranda yaponcha zontik tutgan, pricheskali, ikki qulog'ida kattakon oybaldoq, pardozi-andozi joyida, bir qo'lida mushuk ko'targan xotin ko'rinadi.

Bu - Rahbar xola. Agronomimizning onasi. 27 yil yaslga mudir bo'lganlar. Respublikada xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi unvoniga sazovor bo'lgan. Shu kunlarda bola-chaqali bo'lgan akalimiz, opalarimiz yaslga shu onaxonimiz qo'lida tarbiya ko'rganlar. Respublika miqyosidagi shaxsiy pensioner. U kishiga avtobuslar tekin. Hovliga nalog to'lamaydilar. Elektr, vodoprovod, gaz tekin. Har yili qo'shimcha yana bir oylik pensiya oladilar. Yiliga bir marta xohlagan shahriga poyezdda tekinga borib-kelishga haqqi bor. Apteka dorilari yarim bahoda. Bir marta markaziy kurortga tekin putyovka oladi.

Maxsum. Juda dadam bop ayol ekan. Yozib qo'yinglar.

Bahri (piching hilib). Termiz tomonga ham poyezd tekin bo'lsa kerak?

Nazmi. Bu nima deganingiz, opa? Tushunolmadik.

Rahima. Allaqaysi bir yigit bilan 1938 yilda Termizga qochib ketgan ekan, deb eshitgan edik. Dada, bilmaysizmi, kim bilan qochgan edi?

G'ani. (xijolatda, gap topolmay). Bilmadim. Xabarim yo'q.

R a h i m (piching bilan). Shundo-o deng... Xabarlari yo'q ekan.

Erkin. Bo'ldimi? Ro'yxatga kirsinmi?

Bahri. Ro'yxatga yozmanglar. Bo'lmaydi.

G'ani. Yozaveringlar!

Nazmi. Yo'q. Boshqasini ko'rsat!

Bahri turib Erkinning qulog'iga nimadir deb pichirlaydi. Erkn "xo'p", deb bosh irg'ib qo'yadi.

Erkin. Aziz kinotomoshabin o'rtoqlar. Endi navbat - antiqa suratlarga. Marhamat.

Ektranda G'ani bilan Zumrad kampirning yoshligida, boshini boshiga tegizib tushgan surati ko'rinadi.

Nazmi. Bular kimlar? Ikkoviyam ko'zimga issiq ko'rinyaitp.

Ular gaplashayotganda G'ani sekin turib, qochmoqchi bo'ladi. Quadrat to'nining baridan tortib, o'tkazib qo'yadi.

Rahima. Judayam tanish odamlar. Qosh-ko'zlari kimgadir o'xshab ketyaptp.

Maxsum. I-i-y, manavu dadamlar-ku! E, dada, siz-ku.

G'ani. E, yo'g'-e!

Quadrat. Manavi Zumrad xola-ku!

G'ani. Bo'magan gashsh gapirma.

Erkin. Aziz kinotomoshabin o'rtoqlar, bu suratga jindek izoh berishga majburman.

G'ani. Bas qil. Senga kim qo'yipti, kattalar gapiga aralashishni.

Nazmi. Mayli, gapirsin!

Erkin. Ko'pchilik kinotomoshabinlarning iltimosiga ko'ra gapirishga majburman. O'rtoqlar, bu surat G'anivoy A'zamov bilan Zumrad Xamroqulovalarning yoshlik paytlari. Surat 1938 yili Marg'ilon shahrida Marduxayev degan suratchi tomonidan olingan.

Nazmi. Ana, o'sha paytda bo'ninda chandig'i yo'q ekan.

Baxri. O'zini osmasidan oldin tushgan surat ekan-da.

Quadrat. Suqsurday yigit bo'lgan ekansiz-da, dada.

G'ani. Bo'ldi, ko'pam menp kalaka qilavermanglar!

Maxsum. Bo'ldi, boshqa suratingiz bo'lmasa, do'koningizpp yoping.

Erkin. Yana bitta qoldi. Mana.

Ektranga Rahbar bilan G'anining, xuddi avvalgisidek boshini boshiga tegizib tushgan surati tushadi.

Nazmi. Tag'in bu kanaqasi bo'ldi?

Erkin. Bu surat buvam bilan Rahbar xolaning Termizda Karapetyan degan suratchpga oldirgan suratlari.

G'ani yana qochishni mo'ljallab, engashib joyidan qo'zg'alganida yana Quadrat etagidan tortib, o'tqazib qo'yadi.

Bahri. Bu qanaqasi bo'ldi, dada?

G'ani. Eski gapnpi titkilab nima qilasanlar. Bu - 1939 yildagi gap. Salkam 45 yil oldingi gap bu. Endi, yigitlik ekan. Sho'x, olov edik.

Bahri. Yigitlik ham o'lsin, shunaqa bo'lsa.

Erkin. Kartinka tamom. (Borib pardalarni yig'ishtira boshlaydi.)

Rahima. Mana, kelinlikka nomzod kampirlarni ko'rdik. Erkinjon baraka topsin, hammasini tarjimai holi qanaqa, nimasi bor, nimasi yo'q, hammasini aytib berdi. Endp nima qilaylik, ro'yxatga kirganlarnikiga birin-ketin sovchilikka boraveraylikmi?

Bahri. Boramiz-da. Boshqa ilojimiz yo'q. Birdan-bir ishimiz shu. Dadamizning bir boshlarini ikki qilishimiz kerak. Ertadanoq harakat boshlaymiz.

Nazmi. Illo-billo mensiz bormaysizlar. Dadam menga yoqqanini oladilar.

G'ani. Yo tavba. Nega senga yoqqanini olarkanman? O'zimga yoqqanini olaman.

Quadrat (o'rnidan turib, u yoqdan-bu yoqqa yuradi). Dada, kallamga bir fikr keldi. Shu ishni shundoq qiladigan bo'lsak; onam rahmatlpiing arvohtarini chirqillatmaylpk. O'z tengi xotinlarni yig'ib, bir dasturxon yozaylik. Indinga onaginam ellik sakkizga kirardilar. Tug'ilgan kunlari bo'ladi. Ro'yxatga kirgan xotinlarni shu kunga chaqiraylpk. Sovchi bo'lib, tugun-tersak ko'tarib yurgandan ko'ra, shu yerda, uyimizda ularnp gapga solib ko'rib, bo'ladiganini ko'ndiraylpk. Bo'lmaydiganlari mehmon bo'lib kelib, ketaveradi. Xo'sh, nima deysizlar?

Bahri. Quadrat akamning gaplarida jon bor. Odamlarga ermak bo'lgandan mana shu ish ma'qulroq.

Maxsum. Qayin onamiz rahmatlining arvohtarini ham shod bo'ladi. O'zingiz nima deysiz, dada?

G'ani. Sizlar nima desangiz, shu-da!

Shu payt devor nahrasidan Jo'ravoy ning boshi ko'rinadi.

Jo'ra. Nima qilib valaqlab o'tiribsizlar? Radionn qo'yadaysizlarmi?

Quadrat. Nima gap, tinchlikmi?

Jo'ra (tranzistorni devorga qo'yib). Eshitib ko'ringlar.

Radio... Endi so'zni kolxozimizning raisi Zebinisa Mahkamovaga beramiz. Marhamat, Zebinisa opa.

Zebinisa. Bugun kolxozimiz a'zolari uchun unutilmas kundir. Keksa bog'bonimiz, ajoyib seleksioner G'ani bobo A'zamovning Davlat mukofotiga sazovor bo'lishi qalblarimizni cheksiz g'ururga to'l'dirdi. G'ani bobo butun mamlakatimizda ajoyib sohibkor limonchi sifatida mashhurdir. Men butun kolxozimiz ahli nomidan, shaxsan o'z nomimdan G'ani boboni yuksak mukofot bilan chin dildan tabriklayman. Ajoyib bog'bon ota, sizga muvaffaqiyatlar tilayman. Shaxsiy hayotingizda katta omadlar tilayman.

Nazmi. Voy dod! Onaginam bo'lganlarida yuraklari yorilib ketardi.

Quadrat. E, bas qil! Shundoq yaxshi kunda ham dodlaysanmi?

Rahima. Endi dadajonimizga tegadiganiam tegadi, tegmaydiganiam tegadi.

Nazmi. Tegib bo'pti. Men tirik ekanman, bu uyga xotin zoti kelmaydi.

Hamma G'anivoyni o'rab olib, tabriklay boshlaydi.

Jo'ra (o'zini devordan tashlab). Hoy, hoy, menga ham qolsin. (Odamlarni ikkiga ajratib, G'anini quchoqlab, dast ko'taradi.)

Qadrdomim! Ming yillik o'rtoqjonim! (Belini mahkam qisadi.)

G'ani. Iy, iy, bo'ldi. Belni yeding. Voy, belim! Belni yeding-a, nomard. (Qizlari, kelin uni Jo'raning quchog'idan arang qutqarib olishadi.)

Parda

Uchinchi Parda

Uchinchi Ko'rinish

Yana o'sha hovli. Devorlarga G'anivoyning har xil xolatda tushgan suratlar kattalashtirib osib qo'yilgan. Chorbog' eshigidan teplitsa ko'rinib turipti. Unda limonlar g'arq pishgan. Eshik oldidagi daraxt shoxiga salla, choponlar ilingan. Ostonaga nkki-uchta obdasta qo'yilgan. Ayvon oldidagi yalanglikka stol-stullar qo'yilgan. Sahnaning bir burchagi parda bilan to'silgan. Unda temir o'choq, samovar. Kursida besh-oltita choynak va piyolalar terib qo'yilgan.

G'ani samovarga o't tashlayapti. Bahri bilan Rahima stol yasatishyapti. Eshikdan og'ir sumka ko'targan Nazmi kiradi.

Nazmi. Avtobus o'lgurda biram odam ko'p, biram ko'p. Osilib keldim-a!

Teplitsa eshigi oldiga qo'yilgan obdastaga qoqilib ketadi.

Bu nima balo? Iya, choponga balo bormi?

Bahri. Dadangni qilgan ishi-da. Keladigan xotinlar limon uzmasin, deb shunaqa qilganlar-da.

Nazmi. Tavba. Obdasta bilan salla-choponlar bo'lsa, xotnlar qo'rqarkanmn? Shunaqa irim bormi? Eshitmagan ekanman.

Bahri. Bunaqa irim yo'q. Xotinlar obdastani, salla-choponni ko'rib, nchkariga namozxon erkaklar tahorat olgani kirib ketgan ekan, deb o'ylashadi.

Nazmi (kuladi). Dadamdan har balo chiqadi. (Bahri izlab, chetga chaqiradi.) Opa, bir ishni bopladim. Endi dadam xotn olib bo'ptilar. Bu yog'ini pishiq qilib keldim.

Bahri. Nnma balo qilding?

Nazmi. Rans opaning oldiga kirib, rosa yig'lab berdim. Dadam uylanyapti, jon opa, uni bu yo'ldan qaytaring, qariganda elga ermak bo'lmasin, dedim.

Bahri. U nima dedi?

Nazmi. Hech narsa degani yo'g'u, ammo bilib turibman, gapim unga ma'qul keldi.

Bahri. Tayinli bir gap aytdimi?

Nazmi. Aytmasayam, aytgandek harakat qildi. Dadamning uylanishi unga yoqmagani shundoqqina bilinib turdi. Paytdan foydalanib bugungi o'tirishga uni taklif qildim. Albatta boraman, deb va'da berdi. Ana endi qiziq bo'ladi.

Bahri. Chakki qipsan-da, singlim. Dadam bechora uylansalar uylanib qo'yaqolganlari ma'qul edi.

Nazmi. Voy dod! Siz ham o'sha tomonga og'ib ketdingizmi? Ishongan tog'da kiyik yotmas, deb shuni aytadilar-da.

Bahri. Har holda yaxshi ish qilmapsan.

Nazmi. Bu gapni hidini chiqazmang. Bilmagandek, yelib-yugurib xizmat qilavering. Menam shundoq qilaman. (Pardani ko'tarib.)

Voy, dadajon, dasturxonga limonlardan bermaysizmi?

G'ani. To'kilganlaridan bitta savatchaga terib qo'rganman. O'shani dasturxonga qo'yinglar.

Bahri. Burishgan-qurishganlarni dasturxonga qo'yadimi, bilib gapiryapsizmi?

G'ani. Yesa bo'ladimi?

Nazmi. Yo'q, dadajon. Mehmondan ovqat ayab bo'lmaydi. ApelCHsin bilan mandarin chatishmasidan berasiz. Yeb duo qilishadi.

G'ani. Yo'q, yo'q. Unga qo'l tekizmanglar. Tajriba apelCHsin u.

Nazmi. Xotinlarni shunaqa qilib eritamiz-da. Agar dadamga tegsanglar, har kuni shunaqa apelCHsin yeysizlar, deymiz.

Bahri. Nazmi rost aytyapti. Xotinlarni shunaqa qilib eritamiz. Xotin oladigan erkak avvaliga hech narsasini ayamay turishi kerak.

G'ani (malol kelgandek o'rnidan turib). Bo'lmasam senlar uzmalaring. O'zim bir-ikkita uzib beraman.

Nazmi. Unaqa qurumsoq bo'lmang. Mana shu tog'orani to'ldirib uzib berasiz.

G'aniga ergashib, tog'ora ko'tarib tsplitsaga kirib ketadi.

Rahima. Kenjatoy-da, aytganini qildiradi. Shu yerda turib yangi apelCHsinga hali og'zim tekkani yo'q. Nazmixon har kelganlarida xaltani to'ldirib uzib ketadilar.

Bahri. Ha, Nazmi shunaqa tentak. Hech kim uning bir gapini ikki qilmaydi. Undan oyim rahmatli ham qo'rqib turardilar.

Ichkaridan G'ani bilan Nazmining ovozi eshitiladi.

G'ani. Bo'ldi, bo'ldi, deyapman senga! Hoy bola, endi kaltak yeysan mendan.

Nazmi. Xudo olsin limoningizni. Limon o'lgur odamdan aziz bo'ptimi? Oyimning o'zlari apelCHsin yeyolmaganlariga yarasha ma'rakalariga kelganlar yesin.

G'ani. Suyulma. Chiq, tashqariga! Bo'ldi, deyapman senga. Quloq degan narsa bormi senda.

G'ani tog'ora to'la apelCHsin, limon ko'targan Nazmini haydagandsk tsplitsadan itarib chiqadi.

Nazmi. Yana uch-to'rtta uzay.

G'ani. Meni xonavayron qilding-ku, esi yo'q. Bunaqaligini bnlsam, sira-sira uylanaman, demasdim-a.

Nazmi (Bahriga imlab). Ko'rdingizmi, boshlandi. Uni xotinlardan shunday sovutayki, o'zi bilmay qolsin.

G'ani (hali ham alamdanda javrab yuripti). Esiz, esiz, shuncha apelCHsin! Necha yildan beri kechani kecha, kunduzni kunduz demay, urinib yetishtirgan mevalarimni shart-shart uzdi-oldi-ya! Hali komissiya ham ko'rgani yo'q edi.

Nazmi. E, komissiyangizdan o'rgildim. Bolalaringiz yeyolmasa, nevaralaringizni og'zi tegmasa. E, bunaqa limonxonaga o'tlar tushib, yonib ketmaydimi!

G'ani. Hoy, hoy, og'zingga qarab gapir.

Jo'ra (devor nahrasidan dasturxonga o'ralgan tog'ora uzatadi). Hoy, Rahima kelin, bu yoqqa qara. Manavini ol. Ayang somsa yopgan edi. Dasturxonga qo'yasizlar. Hozprcha o'rog'lik tursin, issig'ida o'rta qo'yasizlar.

Rahima (bo'y cho'zib, tog'orani olarkan). Oh, oh, tandır somsaning hidi ham boshqacha bo'ladi-da (Ichkariga kirib ketadi.)

G'ani. Bu yoqqa chiqmaysanmi?

Jo'ra. Chiqaman. Sen sal durustroq kiyinib olsang bo'lardi. Hoy, kelin, manavu kuyovbolani yasantirmaysizlarmi? Yangi to'nlarini olib chiqinglar.

Rahima. (uydan yangi to'n, do'ppi olib chiqib, unga kiydiradi). Yana nima kerak, dadajon?

Jo'ra (uning ko'krigidagi ordenlarga qarab). Iya, iya, juda ko'p ekan-ku. Generallarga o'xshab ketding-ku!

Nazmi (unga qarab xaxolab kulib yuboradi). Axir, dadajon, kelnn ayamning "Qahramon ona" medallarini ham taqib olibsiz-ku.

G'ani. Iye, shunaqa bo'ptimi? Erkinga ordenlarimni taqib qo'y, degandim. Bu nodon bola adashtirvoripti-da. (Ko'krigidan bitta medalni olib Rahimaga uzatadi.) Ma, olib qo'y. Ehtiyot qil, bolalar o'ynab, yo'qotib qo'ymasin.

Jo'ra. Xotin zoti erga tegsa, senchalik erga tegadi-da. Baxti bor xotin tegadi, oshnam. Endi kimga og'iz solsang, g'iring demay tegishi aniq.

Nazmi (o'zicha). G'iring demay tegishi kerak emish. Ko'ramiz, to'y emas, qiyomat bo'ladi.

G'ani. Hoy kelin, yana bitta medalCH qopketibdi-ku, Xalq xo'jaligi vistavkasidan bergan katta "Oltin medalCH"ni olib chiq.

Ko'zoynagimni qutisiga solib qo'ygandim.

Rahima. Xo'p bo'ladi, dadajon. (Kirib ketadi. Bir ozdan keyin medalni olib chitsib, uning ko'krigiga taqib qo'yadi.)

Jo'ra. Kosmonavtlarga o'xshab ketding-ku.

G'ani. Devorga ko'ngan hakkadek shaqillayvermasdan bu yoqqa chiq. Menga dalda bo'lasan. Sal taptimni olib turasan.

Jo'ra. Xo'p. (Devor orqasida ko'rinmay ketadi.)

G'ani. Hushyor bo'lasizlar. Xotinlar agar limonmi, apelCHsinmi uzadigan bo'lsa, hammayoqni ostin-ustun qilib yuboraman.

Jo'ra (kiradi). Mana, biz keldik. Xizmat-pizmating bo'lsa aytaver.

G'ani. Samovarga o'zing qara. Men qozonga qaray.

Ko'chadan mashina motorining gurillagani eshitiladi. Bir ozdan keyin qo'lida mashina kalitini o'ynab, Zumrad xola kiradi.

Zumrad. Yaxshi o'tiribsizlarmi, kelinposhshalar. Ha, G'anivoy, yaxshi yuribsizmi? E, Jo'ra o'lgur, senam bormisan? Tirik ekansan-ku (Ayollar bilan ko'rishadi.)

Jo'ra. Ke, Zumrad. Tinchmisan?

Zumrad. Yuribman. Yurmay qayoqqa borardim. G'ani, uylanib olganing yo'qmi? Agar uylansang, mendan ko'radiganingni ko'rasan. Xotin oladigan bo'lsang, o'zimni olasan.

G'ani. Semirib, gumbaz bo'lib ketibsiz. Menga ko'plik qilasan.

Zumrad. Men tegaman, dedimu sen o'lgur noz qildingmi. Tegaman desam, jon-jon dersan.

Jo'ra. Zumrad, asl o'zing G'ani bop xotinsan. Tegib qo'yaqol.

Zumrad. Bu bevaftodan bir pand yeganman. Endi bas. Bunday qirq besh yil oldin va'dani menga berib, Obidaga uylanib ketgan. Chirqillab qolganman.

Jo'ra. O'shanda o'zingni behiga osganding shekilli.

Zumrad. Bo'ldi, ko'p vaqillayverma. (Ayollar oldiga ketadi.)

Jo'ra. G'ani, menga qara, oshna. Hali ham bo'lsa shu Zumradni olib qo'yaqol. Yo'q, demaydi. Hali ham ko'ngli senda. Har qalay eskirib qolgan bo'lsa ham ahdu paymonlarning bo'lgan. Yoshlikda bergan ko'ngil...

G'ani. Hali sabr qilib tur-chi... Shu gapi ko'nglimdan o'tib turgandi. Boshqalarini ham bir ko'raylik.

Velosiped qo'ng'irog'ini jiringlatib, eshik oldida shim kiygan Anzirat xola ko'rinadi. Velosiped qo'ng'irog'ini ketma-ket bosadi.

Anzirat. Hoy, kim bor? Kiraversam bo'ladimi?

G'ani. Kiraver, bu senga raisning kabinetini emas. Zvonok chalmay kiravermaysanmi? Shunaqa byurokrat bo'psanki, zvonogingni ham o'zing bilan olib yurasan.

Anzirat kirib, velosipedni devorga tirab qo'yadi.

Jo'ra. Anzirat, sira quynlading, quyilmading-da. Kap-katta xotin velosiped minishiga balo bormi?

Anzirat. Nega quyularkanman? Bitta quyilgan senlarmisanlar? Bellaring obkashdek egilib, yursalaring osma soatning kapgiriga o'xshab lapanglaysanlar.

G'ani. Minaver, minaver velosipedingni. O'lmaysan. Dunyoga ustun bo'lasan.

Anzirat. Albatta o'lmayman. O'lsam ham sendan keyin o'laman. Yuz yil yashashga qasam ichib qo'yanman.

Jamila (eshikdan bosh suqadi). Mumkinmi?

Jo'ra. Mumkin, mumkin, kiraver. Yaxshi yuribsizmi, Jamilabonu?

Jamila. (kiradi). O'h-ho', ishlar katta-ku. Yaxshi qipsan, G'anivoy. Shunaqa yaxshi kunlarda marhumlarni eslab turish kerak.

Rahmat senga. (Kelib ikkovlari bilan ko'rishadi.) Shu bahona eski dugonalarimiz bilan bir gaplasharkanmiz.

Jo'ra. Bay-bay-bay! Qanaqa atir quyding? Hammayoq sasib ketdi-ku.

J a m p l a. Fransuzskiy atir, bildingmi! Bir shishasi 60 so'm turadi.

G'ani. Bunaqasini senga o'xshagan magazinchilar quyadi. Oson pul topishni bilasanlar.

Jamila. Senlar shunaqasanlar-da. Otiki magazinchi bo'lsa, o'g'ri deysanlar.

Ariq bo'yida sovunga ko'zi tushib qoladi. Engashib, ariqda qo'lini yuva boshlaydi.

G'ani. Ana, endi sovunga qiron keltiradi. Bir kunda o'i marta sovunga ko'zi tushsa, o'n marta qo'l yuvadi. Qo'llari ham oq yem bo'lib ketgandir.

Jamila sumkasidan dastro'molcha olib, qo'lini arta boshlaydi.

Jo'ra. Tayyor toza sochiq bor-ku. O'shanga artavermaysanmi?

Jamila. O'zing bilasan-ku, mehmonga borsam o'zimni piyolam, qoshig'imni olib boraman. Birov qo'l artgan sochiqqa o'lsam ham artmayman.

G'ani. Bunaqada seni ikki dunyoda ham er olmaydi.

Jamila. Tegmayman ham-da, zarur keptimi?

Jo'ra. Atir sepishingdan ersiraganga o'xshaydi, deb yurgan edim. Demak yanglishibman-da.

Jamila. Yanglnshganda qandoq. Sapsemiga yanglishgansan. (Xotinlar tomonga o'tib ketadi.)

G'ani. Oliftagarchiligini qara-ya. Ko'ngling erkak tusamasa, nega pardoq qilasan? Erkak zotini ko'rsang tutdek to'kilib ketaman deysanu.

Qumri xonaga kiradi.

Qumri. Assalomu alaykum. Do'mboqqina bo'lib yuripsanmi, G'ani polvon?

G'ani. Hudoga shukr. O'zing qalaysan, o'rdakka o'xshab qishin-yozin suvda suzib yuribsizmi?

Qumri. Ha, endi bu ham bir gap-da. Xudo har bandasiga bitta ermak berib qo'ygan. Suvni ko'rsam, baliq bo'lib ketgim keladi.

Jo'ra. Guzardagi Pinxas yamoqchi do'koniga sening jurnalda chiqqan svetnoy suvratingni yopishtirib qo'yi. Uyalmaymanmi, suvratga shiryalang'och tushipsan-a.

G'ani. Bu jurnal butun dunyoga tarqaydi.

Qumri. "Ogonyok" jurnali chet ellarga ham tarqaydi.

Jo'ra. Rosa sharmanda bo'psan-ku.

Qumri. Nega sharmanda bo'larkanman? Figuram yaxshi. Badanim toza. Butun dunyo xotinlarini ko'zi kuysin, deb shunaqa qilganman.

G'ani. Dunyoning jamiki shaharlaridan senga xat kelarmish, shu rostmi?

Qumri. Rost. Ko'plarini o'qiyolmayman. Anglizcha, fransuzcha, yaponcha, ispancha, italCHyancha xatlarga javob berolmayman.

Nevaram Toshkentdan kelganda olib ketib, hammasiga javob yozadi.

Jo'ra. Iya, nevarang shu tillarning hammasini biladimi?

Qumri. Biladi. Chet tillar institutida dars beradi-ku, bilmaydimi. Biladi. Bilmaganini biladiganlarga yozdiradi.

G'ani. Yoshing bir joyga borib qoldi. Qishda muzlarni teshib cho'milishingni bas qil.

Qumri. Bekorlarni aytibsan. Qirchillagan qishda, qirq gradus sovuqda muzni teshib cho'milmabsan, dunyoga kelmabsan.

Jo'ra. Toyloqov televizorga chiqib, bugun sovuq palon gradus bo'ladi, degandayoq etlarim uvishib, a'zoyi badanim muzlab ketadi.

Qumri. Toploqov sovuq bo'ladi, degan kuni men yayrab ketaman.

G'ani (seskanib). E, nafasing o'zingga ursin.

Qumri xotinlar tomonga o'tib ketadi.

Jo'ra. Qishda cho'miladiganlar juda sog'lom bo'ladi, deyishadi.

G'ani. Yaxshiyam boshida eri yo'q. Agar eri bo'lganda muzdakkina badanini bitta quchoqlagandayoq vaspaliniy lokkiy bo'lib qolardi.

Jo'ra. Xotin emas, muz quchoqlagandek bo'lardi, desang-chi.

Eshikdan yaponcha zontik tutgan, pricheskasi hafsula bilan tuzatilgan, pardo-andozi kelishgan, ikki qulog'ida tilla baldoq Rahbar kiradi.

Jo'ra. E ke, ke, Rahbaroy. Ahvoling yaxshimi, tinch-omon yuribsanmi?

Rahbar. O'zing tinchmpsai? (G'aniga.) Qalaysiz, charchamaygina yuribsanmi, G'anijon aka?

G'ani (dovdirab, o'zini yo'qotadi). Ha, endi, haligi...

Rahbar (uni ahvolini tushunib). Mayli, mayli, o'zingizga kelganingizda gaplasharmiz. (Narigi tomonga o'tib ketadi).

Jo'ra. Senga nima bo'ldi? (Peshonasini ushlab ko'radi.) Isitmang yo'q-ku. O'zingni tut-da, oshnam.

G'ani (ko'ksini changallab). Hozir, hozir o'tib ketadi.

Jo'ra uning ahvolini ko'rib, ma'noli kulib qo'yadi. Xolnisa, Asal xola va bir qancha xotinlar tugun-tersak ko'tarib, ular bilan salomlashib, o'tib ketadilar. Odatdagi eson-omonlik, ko'rishish, hol-ahvol so'rashishlar bo'lib o'tadi.

Bahri. Xush kelibsizlar. Qani, dasturxonga marhamat.

Zumrad. Dasturxonga o'tirish qochmas. Bir limonxonani ko'rsak bo'lardi. Ta'rifini xo'p eshitganmiz. Radioda ham, televizorda ham shu limonxonaning gapi. Bir ko'raylik. (Teplitsa tomon yurib, ostonadagi obdasta va daraxt shoxiga ilingnalla choponlarni ko'rib to'xtaydi.) Voy, o'lsin, erkaklar tahorat olgani shu yoqqa kirib ketishgan ekan-ku. (Orqasiga qaytadi.)

Nazmi. Limonxonaga kirmasangiz ham mevasini yesangiz bo'ldi-da.

Dasturxon ustiga tashlab qo'yilgan dokani ochib yuboradi. Qator bir necha vazada apelCHsin, limonlarni ko'rgan xotinlar hayratda bir daqiqa qimirlamay qoladilar. Kolxoz raisi Zebinisa kiradi.

Zebinisa. Ish vaqtida nima qilib to'y-to'ylashib yuribsanlar. Pensiya chiqib olib, is chiqqan joydan qolmayapsanlar. Shunaqa qilaversalaring, hammangni qiyqirtirib erga berib yuboraman.

Zumrad. Hali ersiraganimizcha yo'q. Kechalari tushing buzilayotgan bo'lsa, o'zing erga teg.

Zebinisa. Boshimda xudoga shukur erim bor, lochindek, qarchig'aydek...

Anzirat. Voy, lochindek, qarchig'aydek emish. Basharasiga qaratib talinkadek ventillator qo'ysang, shamoli narigi qishloqqa uchirib oboradi.

Zebinisa. Cholimni yomonlama. Erlaring yo'q, alam qilgandan shunaqa deyapsanlar. Erlaring tirikligida g'idi-bidi qilib, rosa qiynardilaring. Ana endi eski paytavasiga ham zor bo'lib o'tiripsanlar.

Qumri. Hoy menga qara, o'rtoq Mahkamova. Avval mundoq salom-alik qil. Hol-ahvol so'ra. Eshikdan kirmay, teshikdan bpzga o'dag'aylaysan. Endi bizga gaping o'tmaydi. Biz radio aytgandek, qarilik gashtini surayotgan pensionerlarmpz. Bidingmi? Bizga g'o'dayma. Kolxozda qiladiganimizni qilib bo'lganmiz.

Zebinisa. Nima, nima? Kolxozdan hali qarzing ko'p. Maslahat bilan sendaqa kampirsholardan bitta brigada tuzmoqchi bo'ldik.

Jamiki brigada boshliqlari senlarga pochinaysa qiladi. Uyda zang bosib, mog'orlab, o'tirmay, mundoq dalaga chiqasanlar.

Yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsatasanlar. Paxtada ham, chorvada ham, pillada ham tajribalaring ko'p. Shuncha bilimu hunarni go'rga olib ketmoqchimisiz? Hamma ilmu hunarlaringni xuddi sigir soqqandek kilib yoshlarga olib beraman. Navoiy bobo nima deganlar, bilasanlarmi, bilmaysanlar, "Hunarni asrabon netgumdir oxir, olib tuproqqami ketkumdir oxir". Senlar ham hunarlaringni olib ketmay, yoshlarga berib ketasanlar.

Zumrad. Seni rais qilib boshimizga balo orttprgan ekanmiz-ku.

Qumri. Men ahmoq bo'lmasam, shu rais bo'lsin, desa qo'l ko'taramanmi-ya!

Zebinisa. Ke, qo'y, boshqa gaplardan gaplashaylik. (G'aniga.) Ha, G'anivoy, ahvollaringiz qalay? Xotin-potin oladiganmisiz, yo yo'qmi? Peshonada xotin olish bitilganmi, yo'qmi? Ertaga peshonangizni rengenga soldirib ko'raman.

Jo'ra. Rais, rengen kerakmas. Ko'zoynak taqib pshonasini men qaraganman. Xotin oladi, deb yozilgan. Ammo kimligini o'qiy olmadim, yozilmagan.

Zebinisa. Mana, shuncha xotin. Tanlasin, olaman deganini olib bermasam, otimni boshqa qo'yganim bo'lsin.

Nazmi. Rais opa, kechagi gapingiz boshqacharoq edi-ku.

Zebinisa. Senga hech narsa deganmi yo'q edi-ku.

Nazmi. Tilingiz bilan aytmasangiz ham ko'zingiz bnlan boshqa gapni aytib turgan edingiz shekilli.

Zebinisa. Tavba, gapiradigan ko'zim borligini bilmagan ekanman. Xo'sh, bunaqa mayda gaplarni qo'yaylik. Qizlar, menga qaranglar. Yaqinda oblastda bir leksiya bo'lgan edi. Asli senlar eshitsang bo'larkan uni. Leksiyaning nomi "Yolg'izlik" deb ataladi. Odamzodning yolg'iz yashashi umrdan o'n uch protsentini yulib ketarkai. Doktor bunga juda g'alati misollar keltirdi. Bir Fotima-Zuhralar bor ekan. Bittasi o'ttiz besh yoshida eri o'lib, beva qoladi. Eri o'lgani boshqa erga tegmaydi. Muni qarangi, eri bori sakson yetti yoshda o'ladi, eri yo'g'i ellik to'rt yoshda o'ladi. Sotsiolog olimlar beva erkak va beva ayollar umrini hisoblab chiqishipty. Xotini bor erlar beva erkaklardan o'n sakkiz, yigirma uch yil ortiq yashagan. Yolg'izlik erkakmi, xotinmi, bari bir, asab sistemasini yemirarkan. Ishtaha ham bo'g'ilarkan. Havas yo'qola boshlarkan. Go'zallikka, san'atga, ertangi kunga intilish asta so'na boshlarkan. Natijada qarilik erli xotinlarga nisbatan vohli boshlanarkan. Erli xotin yoqi xotinli erkaklarda hayotga intilish kuchaya borarkan. Yaxshi kiyinish, o'ziga oro berish, kuy va qo'shiq tinglashga intilish kuchayarkan. Tajanglik o'rni allaqanday muloyimlik egallarkan. Pardo-andoz qilishga mayl kuchayarkan. O'sha lektorni qidirib yuribman, topsam, hammangni yig'ib bir eshittiraman.

Jo'ra. Shunaqa qilgin, rais opa.

Zebinisa. Senlarda o'zi insof degan narsa bormi? Pensionerman deb boshimizga chiqib olasashar shekilli. Nima desalaring xo'p, deb qo'l qovushtirib turgan bo'lsak. (Barmoqlarini bir-bir bukib gapiradi.) Qulog'i eshitmaydiganlarga apparat olib berdik, bu, bir.

Tishi yo'qlarga protez qo'ydirib berdik, bu, ikki. Ko'zi xira tortganlarni ko'rikdan o'tkazib, fransuzcha gardishli ko'zoynak qildirib berdik, bu uch. Tog'ora qo'ltiqqlab, hammomga borib yurmalar, deb uylaringga oppoqqina vanna kurdirib berdik, bu to'rt. Yana nima kerak bo'lsa, tayyor turibmiz. Xo'sh, nega senlar aytgan gap bo'laveradi-yu, bizniki bo'lmaydi. Oppoqqina vannaning huzurini o'zlarining ko'raverasanlarmi?

Zumrad. Bachkana bo'lmay o'l. Yarashadigan gapdan gapir.

Rahbar. Menga qara, Zebi, o'zing xo'p esli juvonsanu, ammo ba'zi-ba'zida aynab turasan-da. Xo'sh, menga bir aytib qo'y-chi, erga tegib biz nima ro'shnolik ko'ramiz? Ilgarigi kampirlar azbaroyi muhtojligidan erga tegardi. Hozirgi kampirlar hukumat bilan teppa-teng. Pisiyani jaraqlatib olib turishipti. Elektrdan tortib gazgacha, vodani suvidan tortib uyni nalogigacha teppa-teng. Zarur keptimi, bitta sassiq cholga tegib, paytavasini yuvib, qizlaridan turtki eshitib...e, bor-e!

Zebinisa. Bo'ldi, boshqalarni ham yo'ldan urma. Sen tegmasang, jon-jon deb tegadiganlar bor. Faqat istihola qilib, odamlar nima derkin, deb damini ichiga tortib turishipti. Bir gapni aytib beray. O'tgan kuni oblastda kolxoz veteranlarining kengashi bo'ldi. Oblispolkomning zaliga odam sig'may ketgan. Ko'ksi to'la ordenli chol-kampirlar savlat to'kib yurishipti. Nima bo'ldi, degin? Bizdan borgan chollarni zalga kiritishmadi. Yomonam o'sal bo'lib qaytvorishdi.

Qumri. Chollarimiz nima gunoh qilishgan ekan?

Zebinisa. Borgan chollarning kiyimiga qarab bo'lmaydi. Oq ko'ylakka qizil tugma qadalgan. Do'ppisining yog'i chiqib ketgan. Shimi o'l'gurga bir umr dazmol tegmagan. Soqollari o'sib, patak bo'lib ketgan. Borlaring, odamga o'xshab kellaring, deb qaytarvorishdi. Nomuslarga o'ldim, yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadim. Agar shu bechora chollarning senlarga o'xshagan xotini bo'lganda, chaqmoqdek kiyintirib, maylisga yuborardi. Tortinmay aytaverlaring, bironta cholni ko'z ostiga olib qo'ygan bo'lsalaring, menga shipshib qo'ysalaring, bas! Bu yog'ini o'zim kelishtirvoraman.

Anzirat. Menga qara, rais. Erga tegadigan bo'lsak, seni agitatsiyangiz ham tegaveramiz. Tashvish qilmay qo'yaqol.

Zebinisa. Senlar o'zlaringni o'zlarining xor qilyapsanlar. Shundoq zamonda davru davron surmay, kavakda zang bosib yotish, o'zini o'zi xor qilish emasmi? Ho', yaramas, shum kampirlar.

Zumrad. Shu bir og'iz agitatsiyang bilan to's-to'polon qilib, hamma kampirlar erga tegib ketadi, deb o'ylayapsanmi? Nima, biz senga yosh bolamizmi?

Zebinisa. Menga bari bir. Uzoq yashayman, maza qilib yashayman, desalaring erga tegasanlar. Mog'orlab, zanglab o'lib ketamiz, desalaring, mayli, o'lib ketaverlaring.

Rahbar. Albatta, hammaning ham uzoq yashagisi keladi.

Jamila. Kimni yashagisi kelmaydi. Hammaning ham yashagisi keladi.

Zebinisa. Yashaging kelsa, erga teg.

Xolnisa. Nimalar deydapsiz, rais, bizni kim olardi?

Asal. Ha-ya, kimgayam kerakmiz.

Zebinisa. Axir insof ham kerak-da. Bu dunyoga nimaga kelgansanlar? Qo'sha-qo'sha bola tug'ib, boqdilaring. Bolalaringni bolasini ham boqdilaring. Xo'sh, qachon o'zlarining uchun yashaysanlar? Erlaring bo'lsa qo'l ushlab bormagan joylaring qolmaydi.

Ko'rmaganingni ko'rasan, yemaganingni yeysan, kiyimaganingni kiyasan. O'zlariningni bozorga solguncha bozorlaring o'tib ketadi. Sal kunda puf sassiq bo'lib, biron qaramaydigan holga kelasanlar. Gapni o'g'il bolasini aytsam, erga tegsalaring betlaringdagi ajinlar tarqab ketadi. Oqargan sochlaring yana qorayadi. Yurgan yo'llaringda ming'illab ashula aytadigan bo'lasanlar. Er qanaqa bo'lishi eslaringdan chiqib ketgan-da. Jon er, jon olov, degan ekan bitta dono.

Jo'ra. Boplading, rais.

G'ani. Zebi balo. Gapni juda oladi-da!

Telefon jiringlaydi. Nazmi trubkani ko'taradi.

Nazmi. Kim dedingiz? Rais opami, hozir beraman. Opa, sizni so'rashyapti.

Zebinisa. Eshitaman. Ha, o'zim. Kim deding? Qayerdan? E, shunaqami? Hozir yetib boraman. (Trubkani joyiga qo'yadi.) Gap shu.

Agar erga tegaman desanglar, ertalab soat to'qqizdan kech soat yettigacha zayavkalarni o'zim qabul qilaman. Mana, G'ani otani qaranglar. Qarchig'aydak bo'lib, to'lishib, oqi-oqqa, qizili-qizilga ajralib turipti. Bu kishiga tekkan xotinning joni rohatda o'tadi.

Hali Kavkaz, hali Ukraina, hali Tojikiston, hali Belorussiyaga sayohat qilgani qilgan. Kim shunga tegaman, desa, qo'lini ko'tarsin.

Zumrad. E, bor-e. Bunaqa ish imi-jimida bo'ladi.

Zebinisa. Nega imi-jimida bo'larkan? O'g'rilik qilyapsanmi, imi-jimida qilasan. Hozir erga tegadigan ayol gazetaga e'lon beryapti.

Yoshim palonda, og'irligim muncha, tishim o'zimmiki, menga palon yoshdagi sog'ligi yaxshi er kerak. Xohlovchilar palon adresga murojaat qilsin, deb gazetaga e'lon beryapti.

Asal. Yo, tavba, ajab zamonlar bo'ldi-da.

Zebinisa. Bo'пти men ketdim. Meni yo'qlab odam kepti. Xayr. Ammo gaplarimni tanlaringga yaxshilab o'ylab ko'ringlar. Xayr.

Chiqib ketadi. Pauza. Hamma jim.

Anzirat. Bor-e, deb erga tegvoray deymanu, shu, quda-andalarimdan uyalaman-da.

Rahima. E, ayamiz tushmagur-e! Har kimning huzur-halovati o'ziga.

Jamila. Bu rais tushmagur hammamizning yuragimizga o't yoqib ketdi.

Rahbar. Bir hisobda uning gaplari to'g'ri. Erta-inda paq etib o'lib ketsak, palonchi er qilmay olamdan o'tdi, deb go'rimizga marmar tosh qo'yarmidi? Ikki o'rtada sho'ppayib, yolg'izlikda o'tib ketganimiz qoladi.

Jamila. E, yolg'izlik qursin. Yolg'izlik hech kimning boshiga tushmasin. Bitta qiltillagan choling bo'lsa ham jikillab kun o'tganini bilmay qolasan. Bola-chaqa o'z rohati bilan ovora. Kezi kelganda yashab yurganing ularga malol kelayotganga o'xshab ketadi.

Xolnisa (xayolga berilib). Choling bo'lsa. O'tin yorib, sabzi to'g'rab bersa. O'choqqa o't qalab, jaz-biz qilsang. Hovliga suvlarni sepib, joy qilsang. Magnitofonda yaxshi ashulani qo'yib qo'ysang. Chol-kampir o'tirib to osh dam yeguncha choyni maydalab o'tirsang. E, bu gaplar endi bir ertak bo'lib qoldi.

Nazmi. Bu shum kampirlar shu topda ko'zimga balo bo'lib ko'rinyapti.

Rahima. Endi aynimang. Uyga mehmon aytib qo'yib, shunaqa deysizmi? Oyingizni bular o'ldiriptimi? Bo'ladigan ishni qilaylik.

Bahri (ichkari uydun dutor ko'tarib chiqadi). Hoy, mehmonga kelganmisizlar yo azagami? Qumrixon aya, o'ladigan dunyoda bir yayrab qolaylik. Bitta yalla aytib bering.

Qumri. (dutorni olib). Chalmaganimga ham ancha bo'lib qolgandi. Xo'p, anavu chollarning yuragini bir o'ynatay. Nimani aytib beray? Hoy, G'anivoy, qanaqasidan bo'lsin. Yig'latadiganidanmi, kuldiradiganidanmi, o'ynatadiganidanmi?

Jo'ra. Yig'latadiganini nima qilasan? Ko'ngilni bo'shatadiganidan ayt.
Qumri (dutorni chertib, avvaliga past, keyinchalik baland pardada qo'shiq boshlaydi).

Turnalar uchsa qaraylik,
Marg'ilonning yo'liga.
Hidi kelsa mast bo'laylik
Handalakning bo'yiga.
Handalak bo'ylikkinam
Sen unda zor, men bunda zor.
To'tiqushning bolasidek
Ikkalamiz intizor.
Intizorlik torta-torta
Tanda toqat qolmadi.
Yo'l chivindek sarg'ayib
Ucharga holat qolmadi.

Shu payt telefon jiringlab qoladi, qo'shiq to'xtaydi.

Jo'ra. Ashulani beliga tepti-da.

Nazmi (trubkani olib). Labbay. Dadamlarmi? Shunaqami? Hozir aytaman. Xo'p. Darrov borarmishsiz. Kinoga oladiganlar dedimni, olimlar keldi dedimni, ishqilib, katta odamlar kelganmish, sizni ko'rib, gaplashisharmish. Limon masalasida emish. G'ani. Bo'ptn. Hozir boraman. (Ko'cha tomonga yurarkan, orqasiga qaytib, teplitsa eshigini qulflamoqchi bo'ladi.)

Bahri. Qulflamang, uyat bo'ladi-ya. Nima qilasiz, xasis degan nom orttirib. Ochiq turaversin. Limonlaringizni bo'ri yemaydi.

G'ani (kalitni yoniga solib, ko'cha tomon yuradi). Jo'ravoy, men kelguncha ssn mehmonlarni choy-poyidan xabar olib tur.

Jo'ra. Boshqa ishim yo'qmi? Uyga televizor ustasi kelmoqchi edi. (G'anjonga ergashib chiqib ketadi.)

Erkin uydan bir dasta jurnal bilan kattakon alCHbom ko'tarib chiqib, xotirlarning o'rtasiga o'tirib oladi.

Erkin. Hozir sizlarga bir narsalarni ko'rsataman. Tomosha qilaszilar. Manavi jurnal Fransiyada chiqqan. Ikki beti to'la buvamni maqtab yozgan. Suratlarini qarang. Lpmonxonada olingan. Qoyilmiszilar? Manavi jurnal Chexoslovakiyada chiqqan. Bunda ham buvamni suratlarini bosib, o'zlarini maqtagan. (U besh-olti jurnalni xotinlarga beradi.) Bunisi Ispaniyada, bunisi Angliyada, bunisi Vengriyada, bunisi Bolgariyada... Endi devordagi suratlariga qaranglar. Mana, buvam kosmonavt Jonibekov bilan tushganlar, bunisi FidelCH Kastro bilan, limonxonamizga kelganda olganman. Manavinisi Lyudmila Zikina bilan. E, ko'raverasizlar hali. Manavinisi Arkadiy Raykin kelib buvamning yangi nav apelCHsinlarini ko'rayotganda olingan. Manavu xalq artistlari Sora Eshonto'rayeva bilan Halima Nosirovalar limonxonaga kelishganda olingan. Qoyilmiszilar? Buvam oladigan xotinning peshonasi yarqiragan bo'ladi. Mana, mana, buvam ilg'or kolxozchilar qurultoyi minbarida gapirayotgap rasmlari. Buni Penson degan zo'r fotochi olgan.

Rahbar. Oldingdan oqqan suvni qadri yo'q, deb shuni aytisharkan-da. G'ani aka juda buyuk kishi ekanlar.

Zumrad. Zo'rlikka zo'rku-ya, ammo sal bevaforoq-da.

Qumri. Sizni olmagan uchun shunaqa deysiz, o'rgilay. O'zi qarib qolgan bo'lsa ham, bitta xotinni to'tidek yashnatib olib yuradigan holi bor.

Zumrad (Rahbar tomonga imlab, piching bilan). Bunaqaligini biz qayoqdan bilardik. Yurtma-yurt qochib yurganlar biladi buni.

Rahbar. Kesatmang, kesatmang. O'tgan gapni kovlamang. O'lgan ilonning boshini qo'zg'atmang. Bu gapga qirq yildan oshgan.

Sizga alam o'tgan-da, sira unutilmaysiz.

Zumrad. Bir aytdim-qo'ydim-da.

Erkin jurnallarni yig'ishtirib oladi.

Erkin. Kartinka tamom. O'pketaveraymi? Bo'пти. (Narsalarni olib, uyga kirib ketadi.)

Qumri (qo'lidagi dutorning u yoq-bu yog'ini ko'rib). Yasalganigayam biron sakson yil bo'lgandir. Obidani charlarida ham shu dutorni chalgandim.

Nazmi. Voy, oyimni to'ylariga kelganmisiz?

Qumri. Nega kelmas ekanman? Yor-yorni ham o'zim aytganman. Oyingdan ikki yosh kichik bo'lsam ham, juda balo edim. Katta-katta bazmlarda yalla aytardim.

Anzirat. Meni to'yimda aytmagansan. O'shandan beri ko'zimga yomon ko'rinasan.

Qumri. Akam rahmatli uyga qamab qo'ygan edilar. Kelolmaganman. Erga tekkaningga necha yil bo'ldi, Anzirat?

Anzirat. Bir kam qirq yil bo'ldi. Hozir shu yurishingni, valasapit minishingni akang ko'rsa, naq teringni shilib olarkan-da.

Qumri. Akam rahmatli eskicha odam edilar-da. U kishi ham urushda o'qqa uchib ketdilar.

Nazmi. Dadam idoraga ketdilar. Yo'qlarida limonxonani bir tomosha qilinglar. (Nazmi bog' eshigi oldidagi obdastalarni tepib yuboradi.) Kiraveringlar! (Xotinlar baravariga o'rinlaridan turib, limonxona tomon yura boshlaydilar.)

Bahri. Singiljon, dadamdan baloga qolmasmikinmiz?

Nazmi. Shu xotinlar limonlarni bitta qo'ymay uzib olsa juda yaxshi bo'lardi-da. Ayni muddao bo'lardi.

Bahri. Nega unaqa deysan?

Nazmi. Xotinlar dadamni ko'ziga balo bo'lib ko'rinsin deyman-da. Hammasini quvib solardi.

Rahima. Xoy, Nazmixon, o'rgilay. Bunaqa niyat qilmang.

Nazmi. Siz aralashmang, kennoyi. Har qalay, nima qilsa ham begonasiz. Qoningiz qo'shilmaydi. Dadamni uylantirib, qozon-tovog'ini bo'lak qilmoqchisiz. Bilaman.

Rahima. Voy, o'lay! E, boring-e, bilganingizni qiling, menga nima! (Jahl bilan uyga kirib ketadi.)

Nazmi. Qani, kiraveringlar dedim-ku!

Rahbar. Hoy, qo'yinglar. G'anivoy akaning tajriba limonlari-ya. Yo'q, kirmanglar.

Nazmi. Siz xo'jayinlik qilmang. Nima, dadamni xotinimisiz? Kiraveringlar.

Zumrad. Yo'g'-e, baloga qolmaylik.

Nazmi. Baloga qolmaysizlar. Komissiya ko'radiganini ko'rib bo'lgan. Bu yog'ini dadam sizlarga qoldirganlar. Bemalol uzaveringlar. Hammasi sizlarniki.

Xotinlar jur'atsizlik bilan teplitsaga kirib ketishadi. Ichkaridan ularning ovozlari eshitilib turadi.

- Hoy, qanaqa bo'larkin-da.

- G'anivoyning ko'ziga shumshuk bo'lmasmikanmiz?

- Gulidanam uzaylik. Limon gulidek xushbo'y gul dunyoda bo'lmaydi.

- Kelinim limonga boshqorong'i edi. Bittagina uzaqolay.

Nazmi. Mana, mana, sumkalarini to'latib olinglar.

Bir ozdan keyin xotinlar to'r xalta, sumka, tugunlarda limon-apelCHsinlarni arang ko'tarib, chakkalariga limon gullarini taqib chiqishadi.

Xolnisa. Qishda muzni teshib cho'miladiganlar limonni ko'p yesin, degan. Kitobda shunday yozilgan.

Jamila (limon gulini hidlab). Muni qarang-a, bilmas ekanman. Limon gulining hidi oldida fransuz atiri kapiyka ekan.

Anzirat. Qani, qizlar, shu G'anivoyni bir duo qilaylik. Bog'i bundan ham obod bo'lsin. Obro'si borgan sari baland bo'laversin.

J u r a v o y kiradi. Ular qo'lidagi tugunlarni ko'rib xang-mang bo'lib qoladi.

Jo'ra. Bu qanaqasi? Insoflaring bormi, o'zi...

Jamila. Ha, nima bo'пти?

Jo'ra. Nima bo'пти, deydi-ya! Bu apelCHsinlarni yetishtirguncha G'ani bechora naq adoyi tamom bo'lay degan-ku. Nega uzdinglar? Komissiya ko'rishi kerak edi. Vistavkaga yuboriladigan apelCHsinlar edi.

Rahbar (xijolat bo'lib). Men tekkanim yo'q. Nazmixon eshikni ochib berdilar. Xohlagancha uzaveringlar, dedilar.

Jo'ra. Nazmi, sira esing kirmadi, kirmadi-da. Dadangni ajalidan besh kun oldin o'ldirasan. Hech dadangni ayaysanmi o'zi?!

(Xotinlarga.) Uz, desa senlar ham uzaverdinglarmi? Endi juda yomon bo'ldi. Hali kelsa bu ahvolni ko'rib, jinni-minni bo'lib krlmasa go'rga edi.

Nazmi. Hech balo bo'lmaydi. Limon o'lsin, odamdan aziz bo'lmay. Xijolat bo'lmanglar, o'zim javob qilaman. Bunaqa xasis cholga qaysi xotin tegadi. Kim tegsa ham sil bo'lib o'ladi. Dadamni xo'p qiliqlari borki, joni toshdan bo'lsa ham xotin kishi uch kunga chidamaydi. Oyim rahmatlini ham shu ziqnaliklari o'ldirgan.

Bahri. Og'zim bor, deb har gapni gapiraverasanmi, dadam unaqa odam emaslar.

Nazmi. Qanaqaliklarini hozir kelganlarida ko'rasizlar. To'rtta sap-sariq limon deb, hammayoqni ostin-ustun qiladilar. Hammaning dilini xufton qiladilar. Voy dod, bu qanaqa molparast ziqna, xasis ota! O'z bolalaridan, mehmonlarndan ikkitagina qurishqoq limonni ayaydigan ota qanaqa ota, axir!

Jo'ra. Baqirma-e. O'z otangni shundoq deyishga qandoq tiling bordi?

Nazmi. Bilib qo'yinglar, xolajonlar. Mana shu qurumsoq chol xotin olmoqchi. Tegmanglar, aslo tegako'rmanglar unga. Sil qilib, rak qilib, impay qilib o'ldiradi sizlarni.

Shu payt G'ani kiradi, qizining lo'lilik qilib, shang'illashiga quloq solib turadi.

Jo'ra. Hoy qizim, bas qil. Bilaman nega unaqa qilayotganingni. Dadam xotin olmasin, deb uni hammaga yomonlayapsan. Bu ishing yaxshi emas. Uning ustiga, dadang bechora yetti ynl kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay qiymalib yetishtirgan apelCHsin gibridini talon qilding. Otaga hurmat shumi?

Nazmi. Siz aralashmang. Siz begona odamsiz.

Jo'ra. E, bor-e! Senga gapirdi nima-yu, devorga gapirdi nima. (Jahl bilan chiqib ketadi.)

G'ani (chidayolmay qizining oldiga keladi). Ovozini o'chir! Esi yo'q. Jo'ravoy oilamizga eng qadrdon kishi. Otang qatori odam.

Hamma gapingni eshitdim. Meni jig'imga tegish uchun shunaqa qilgansan, mayli. Istaganingcha dodla. Men o'z qarorimdan qaytmayman. Bu yerdagi apelCHsinlarni vayron qilsang yana yetti shaharda teplitsam bor. Hammasida limonu apelCHsinlar shig'il pishib yotipti. (Xotinlarga.) Yaxshi qipsizlar. O'zlarining uzganlari juda soz ish bo'пти. O'zim shunchalik uzib berolmasdim.

Ko'zim qiymay, qo'lim qaltirab apelCHsinlarni uzolmasdim. Osh bo'lsin. Bola-chaqalarining bilan birga baham ko'ringlar. Aslo xijolat bo'lmanglar. Men endi Termizga ketdim. Televideniyadan operator kelgan. Kino qilmoqchi. U bilan Termizga boraman.

Rahima, kelin, kiyim-boshimni chamadonchaga solib ber. Hozir yo'lga chiqamiz.

Boyadan beri xijolat chekib turgan xotinlarga jon kiradi.

Jamila. G'anivoy, endi bizni kechirasana-da. Beodobchilik qilib qo'ydik.

Zumrad. Juda xunuk ish bo'ldi-da. Nazmixon olaveringlar, deganlariga biz ham surishtirmay uzaveribmiz.

G'ani. Aslo xijolat bo'lmanglar, deyaqman-ku. Axir, bu narsalarni odamlar yesin, deb ekanman-da.

Qumri. E, baraka top. Bog'ing bundan ham obod bo'lsin. Obro'ying ortaversin.

Rahima kichkina chamadoncha olib chiqadi. G'anijon beixtiyor Rahbarga qaraydi. Uzoq qarab turadi. Bir nima demoqchi bo'ladi. Deyolmaydi.

Rahbar. Ketyapsizmi?

G'ani. Ketyapman. Xayr endi. (Chiqib ketadi.)

Nazmi. Bopladimmi?!

Rahima. Bag'ritosh, uyatsiz!

Nazmi unga burnini qiyshaytirib chiqib ketadi.

Rahbar xamon kimirlamay turipti, bir qarorga kelgandek shoshib uning ketidan ko'cha eshigi tomon yuguradi.

Rahima. Otamga jabr bo'ldi. Qariganda bunchalik azob berish kerak emasdi. Axir u kishi kichkina odam bo'lmasa. Eh, beodob

Nazmi...

Qudrat (shoshib kiradi). Dadam qanilar?

Rahima. Hozir ketdilar. Kinochilar bilan Termizga jo'nab ketishdi.

Qudrat. E, attang. Bitta kampirni ko'ndirgandim. Juda antiqa edi. O'rischaniyam, fransuzchaniyam bilarkan. O'zi bilan gaplashdim.

Rozi bo'ldi. Dadam ko'nsalar tamom. To'yni boshlavorardik.

Rahima. Dadam endi bizni kechirmaydilar. Nazmixon xotinlarga limonxonani ochib bergan edilar...

Qudrat. Voy-voy, juda xunuk ish bo'пти-ku. E, attang-a!

Erkin (qo'lida xat bilan hovliqib kiradi). Dada, mana xat. Buvam berib ketdilar. Dadangga ber, dedilar.

Qudrat. (Shoshib konvertini ochadi. O'qiy boshlaydi). "Bolajonlarim. Men sizlarni oq yuvib, oq tarab o'stirdim. Opichlab katta

This is not registered version of TotalDocConverter

qilindi. Vana boshqalarda vana, deganek yuragimni dardimni bilmadinglar. Necha yillab qilgan mehnatim, orzu-umidlarim bo'lgan limonxonamni payhon qilishga yo'l qo'ydinglar. Men shu limonxonada ivirsib yurib ovunardim. Sizlar buni qadriga yetmadinglar. Termizga jo'nab ketdim. Rahbar xolang men bilan birga ketdi. Omon-eson yetib borsak, fotochi Karapetyan tirik bo'lsa o'ziga, o'lib ketgan bo'lsa o'g'liga suratimizni oldirib yuboramiz. Kelasi haftaning juma kuni kechqurun soat yetti yarimda televizorni burab qo'yinglar, meni ko'rsatadi. Sizlarga Rahbaroydan salom..."

Zumrad. Vop, pismiq Rahbar-e! Bu yoqda ishni pishiq qilib bitishib qo'ygan ekan-da.

Qumri. Zumrad, yana kuruq qolding. Endi o'zingni qaysi daraxtga osasan?

Zumrad. O'zini osadigan ahmoq yo'q.

Nazmi (eshikdan xrvliqib keladi). Dadam anavu Rahbar kampir bilan allaqayoqqa qochib ketgan emishlar. Shu rostmi?

Qudrat. Rost!

Nazmi. Voy dod! Onaginamni arvohi chirqilladi!

Jo'ra (devordan bosh chiqazadi). Nima gap? Yana nima janjal?

Nazmi. Dadam anavi Rahbar kampir bilan allaqayoqqa qochib ketibdilar.

Jo'ra. Qochgan bo'lsa nima qipti? Bu Rahbar bilan birinchi qochishi emas. 1939 yilda ham shu Rahbar bilan qochgan edi. Tashvish qilma, qizim. Qochgan bo'lsa, albatta Rahbar bilan boshini-boshiga tekkizib oldirgan surati keladi.

Bahri (Maxsumni qo'lidan sudrab kiradi, hayajonlanganidan ovozi chiqmay, bo'g'ilib gapiradi). Dadam qochiptilar, dadam qochiptilar. Dadam qochib ketiptilar. Dadam qochib ketiptilar. (Nazmiga tashlanadi.) Sen aybdor. Hammasiga sen sababchi.

Dadam qochib ketiptilar. Dadam...

Jo'ra. Manavini yoshlikda bergan ko'ngil, deydilar.

Parda